Инсонларнинг дарду ташвишларини ўйлаб яшаш — одамийликнинг энг олий мезонидир

# Bugungi O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy, madaniy-ma’rifiy gazeta
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com
2026-yil 14-aprel, 7-son (81)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
ҚАРОРИ

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ 35 ЙИЛЛИГИНИ КЕНГ НИШОНЛАШГА ТАЙЁРГАРЛИК КЎРИШ ВА УНИ ЎТКАЗИШ ТЎҒРИСИДА

Миллий суверенитет ва давлат мустақиллиги ҳар қайси мамлакатнинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий тараққиётининг энг асосий шарти ва гаровидир. Бу ҳал қилувчи омиллар давлатнинг халқаро ҳуқуқ субъекти сифатида дунё ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаши, халқнинг тинч ва фаровон ҳаётини таъминлаш, унинг барча манфаатларини ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Бизнинг миллий мустақиллигимиз мард ва матонатли халқимизнинг қатъий иродаси, истиқлол йўлида курашган фидойи аждодларимиз орзу-умидларининг рўёби бўлиб, Янги Ўзбекистонни барпо этишга қаратилган эзгу ишларимизнинг мустаҳкам асоси, келажак авлодларимиз учун безавол етказишимиз шарт бўлган буюк ва муқаддас қадриятдир.

Мамлакатимизнинг миллий суверенитети ва давлат мустақиллиги ғояларининг сиёсий-ҳуқуқий кафолатларини ўзида мужассам этган янги таҳрирдаги Конституциямиз ҳамда "Ўзбекистон — 2030" стратегияси асосидаги тараққиёт йўлимиз инсон қадр-қимматини юксалтириш, кўп миллатли жамиятимизда дўстлик ва ҳамжиҳатлик муҳитини мустаҳкамлаш, миллий урф-одат ва анъаналарни асраб-авайлаш, юртимизда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш, унинг мудофаа қобилиятини кучайтириш, минтақада яхши қўшничиликни ривожлантириш ҳамда Ватанимизнинг халқаро обрў-эътиборини оширишда мустаҳкам таянч бўлиб келмоқда.

Миллий истиқлолимизнинг давлатчилигимиз тарихи, ҳозирги ва келажак ҳаётимиз учун беқиёс аҳамиятини ҳисобга олиб, Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 35 йиллигини Янги Ўзбекистоннинг бугунги улкан салоҳияти ва жаҳон майдонидаги нуфузига мувофиқ юксак даражада, муносиб нишонлаш мақсадида қарор қиламан:

1. Қуйидагилар:

а) "**Ягона Ватан, ягона халқ бўлиб, янги ҳаёт ва келажак яратамиз!**" деган бош ғояни ўзида мужассам этган ғоявий-бадиий концепция ва дастур 1- ва 2-иловаларга мувофиқ;

б) Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 35 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва ўтказиш бўйича республика комиссияси таркиби 3-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Республика комиссияси (А. Арипов):

а) мустақилликнинг 35 йиллигини Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри, вилоят ва туман (шаҳар) марказларида, барча маҳаллалар, қишлоқ ва овулларда, шунингдек, вазирлик ва идоралар тизимида муносиб нишонлаш мақсадида концепциянинг мазмуни ва асосий йўналишларига мувофиқ чора-тадбирлар дастурларини ишлаб чиқиш ва ижро этишни таъминлаш.

Бунда қуйидаги устувор йўналишларга алоҳида эътибор қаратиш:

(i) Янги Ўзбекистондаги амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида юзага келган улкан имконият ва ютуқларни кенг ёритиш;

(ii) мамлакатимиз иқтисодиёти барқарор суръатларда жадал ривожланиб бораётганлиги натижасида фуқароларимизнинг турмуш фаровонлиги ортиб бораётганлигини кўрсатиб бериш;

(iii) юртимизнинг тинчлиги ва чегаралар дахлсизлигини таъминлашга хизмат қилувчи мудофаа салоҳиятини мустаҳкамлаш борасидаги ислоҳотларни ёритиш;

(iv) истиқлол туфайли миллий қадриятлар, давлатчилик, фуқаролик жамияти институтлари, жумладан, маҳалла тизимини ривожлантириш бўйича эришилган ютуқ ва натижалар аҳамиятини таъкидлаш;

(v) нуронийлар, хотин-қизлар ва ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлам манфаатларини таъминлашга, ёшларнинг **"Янги Ўзбекистоннинг бунёдкорлари"** сифатида билим ва касб эгаллашлари, тадбиркорлик ташаббуслари ва истеъдодларини рўёбга чиқаришга зарур шароитлар яратилганлигига урғу қаратиш;

(vi) миллатлараро дўстлик ва динлараро бағрикенглик муҳитини сақлаш ва кучайтиришни барча фуқароларнинг муқаддас бурчи сифатида тарғиб қилиш;

(vii) байрам тадбирларига барча ёшлар, ижтимоий ва этник гуруҳлар ҳамда ватандошларнинг фаол жалб этилишини таъминлаш;

б) илм-фан, таълим, маданият, адабиёт ва санъат намояндалари, спортчилар, жамоатчилик вакилларидан иборат бадиий-ижодий гуруҳлар тузиш ҳамда улар иштирокида апрель-сентябрь ойлари давомида республика бўйлаб кенг кўламдаги маънавий-маърифий тадбирлар ва ижтимоий лойиҳаларни ўз ичига олган "Мустақиллик тўйи" (фестивали) тадбирларини ўтказиш;

в) Тошкент шаҳрида ўтказиладиган асосий байрам тадбирига тайёргарлик кўришда таниқли сценарист ва режиссёрлар, шоир ва ёзувчилар, хонанда ва бастакорлар, балетмейстерлар, саҳна рассомлари, истеъдодли ёш ижрочиларни жалб этиш;

3-бет

Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак.
Шавкат МИРЗИЁЕВ



## Vazir Buxorodagi kasbiy ta’lim muassasalari faoliyati bilan tanishdi

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov Buxoro shahrida joylashgan ta’lim muassasalariga tashrif buyurdi. Dastlab vazir Buxoro shahar 1-son texnikumi faoliyati bilan tanishdi. Bu yerda Pearson xalqaro ta’lim dasturi asosida kasb va mutaxassisliklarni o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, o‘quv jarayoni uchun yaratilgan zamonaviy imkoniyatlar alohida e’tibor markazida bo‘ldi. Darsdan keyingi hayot ham e’tibordan chetda qolmadi — o‘quvchilar ishtirokidagi Speaking Club to‘garaklari jarayoni kuzatildi. Yoshlarning erkin fikrlashi, xorijiy tillarda muloqot qilishga bo‘lgan intilishi tashrif davomida yaqqol namoyon bo‘ldi. Shuningdek, vazir texnikumning axborot-resurs markazi, faollar zali va sport zalidagi mashg‘ulotlar bilan tanishib, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bilan mazmunli muloqot qildi. Unda yoshlarning nafaqat bilimli, balki sog‘lom va barkamol bo‘lib kamol topishi masalalariga alohida urg‘u berildi. Tashrifning keyingi manzili Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi bo‘ldi. Bu yerda xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, o‘quvchilarning yutuqlari hamda "Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish" yo‘nalishida tahsil olayotgan yoshlar bilan samimiy muloqot o‘tkazildi. Mazkur ta’lim muassasasida ham yaratilgan shart-sharoitlar, axborot-resurs markazi faoliyati va sport to‘garaklari jarayoni atroflicha o‘rganildi. Yoshlarning kasbga bo‘lgan qiziqishi va intilishi, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bilan uyg‘un holda, o‘quvchilarning kelajakkda mehnat bozori uchun yetuk kadr bo‘lib shakllanishlariga zamin yaratayotgani qayd etildi. Tashrif yakunida vazir tomonidan texnikumlarda kasb va mutaxassisliklarni o‘qitish sifatini yanada oshirish, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda xalqaro ta’lim dasturlarini keng joriy etish yuzasidan bir qator muhim topshiriqlar berildi.**

## ЗАМИН АЛЛОҲ МУЛКИ ЭРУР, СЕН ЧАНГАЛ СОЛМА...

**Фуқароларимизнинг ер ва уй-жойга бўлган мулк ҳуқуқини ҳурмат қилиш, айниқса, қишлоқларда аҳолини қийнаб келаётган муаммоларни ҳал этиш, уларга муносиб турмуш шарт-шароитларини яратиш, унинг эмин-эркин яшаш ҳуқуқини таъминлаш мақсадида "Обод маҳалла", "Обод қишлоқ", "Ёшлар келажагимиз", "Беш муҳим ташаббус" каби 30 га яқин кенг кўламли давлат дастурлари амалга оширилиб, минглаб арзон квартиралар ва якка тартибдаги уй-жойлар барпо этилмоқда. Аммо шунга қарамай, айрим ҳокимликлар томонидан "уй-жой" ва "тандир" бузишлар, "ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган" деган важ билан "ер участкаларини тортиб олишлар" ижтимоий тармоқларда тез-тез ёритилаётгани ҳеч кимга сир эмас. "Ўзбошимчалик, зўравонлик, буз-бузлару, тортиб олишлар" қаерда-ю, инсонпарвар қонунларимиз қаерда?**

**Суҳбатдошимиз Давлат кадастрлари палатаси Тошкент вилояти бошқармаси бошлиғи Жасур Давлатбоевич АХРОРОВга ер муносабатлари соҳасидаги қонунийликни таъминлаш, ерларни ноқонуний эгаллаш ва ердан фойдаланишда белгиланган тартибдан четга чиқиш ва ер соҳасидаги коррупцион омилларни бартараф этишга оид бир неча савол билан мурожаат қилдик.**



*Жасур АХРОРОВ, Давлат кадастрлари палатаси Тошкент вилояти бошқармаси бошлиғи*



2-бет

## YANGI TASHABBUSLAR DENOV YOSHLARI MISOLIDA

**Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2026-yil 7-aprel kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu boradagi muhim vazifalarni belgilab berdilar.**

**Davlatimiz rahbari yig‘ilish avvalida shunday dedilar: "Sport bu faqat musobaqa emas, balki sog‘lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon qiladigan katta kuch".**



### Keng ko‘lamli islohotlar — aniq natijalar

So‘nggi to‘qqiz yilda mamlakatimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1,5 mingdan ortiq mahallada 1774 ta zamonaviy sport maydonchasi barpo etildi. Shuningdek, 200 dan ziyod yirik sport inshootlari hamda qariyb 4 ming xususiy sport klublari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Natijada sport bilan professional shug‘ullanuvchi yoshlar soni 2 barobar oshdi. Olimpiya terma jamoamiz tarkibi 2 barobar, paraolimpiya yo‘nalishida esa 3 barobar kengaydi.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida sportchilarimiz xalqaro maydonda 452 ta oltin, 418 ta kumush va 501 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, 50 dan ortiq jahon va Osiyo rekordlarini yangiladi.

### Endi e’tibor — sog‘lom turmushga

Yangi bosqichda sport natijalari faqat qamrov bilan emas, balki aholining salomatlik ko‘rsatkichlari bilan ham baholanadi. "Salomatlik balansi" tizimi joriy etilib, har bir hududda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi volontyorlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, sport bilan faol shug‘ullanish natijasida yurak-qon tomir kasalliklari va diabet ko‘rsatkichlari kamaygan hududlarda mahalla raislari va volontyorlar moddiy rag‘batlantirilishiga alohida to‘xtaldilar.

### Oliy ta’limga yangi talablar

Yig‘ilishda oliy ta’lim muassasalaridagi sport ishlari tanqidiy tahlil qilindi. Ayrim oliygohlarda sport klublari yetarli darajada faol emasligi, talabalar jismoniy tayyorgarligi pastligi qayd etdilar.

4-бет

Bugungi O‘ZBEKISTON
2026-yil 14-aprel,
7-son (81)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

**Фуқароларнинг ҳар қандай муаммоларини ҳал этиш давлатнинг халққа нисбатан асосий мажбуриятларидан бири эканини унутишга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ.**

# ЗАМИН АЛЛОҲ МУЛКИ ЭРУР, СЕН ЧАНГАЛ СОЛМА...



*(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)*

**— Жасур Давлатбоевич, аҳолига, айниқса, қишлоқларда муносиб уй-жой шароитини яратишга қаратилган кенг кўламли давлат дастурлари амалга оширилмоқда. Бироқ шунга қарамай, ўтказилган ялпи хатловлар жараёнида якка тартибда уй-жой қуришда қонунийликни таъминлашда давлат органлари, энг аввало, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият, шу жумладан, ер кадастри, архитектура ва қурилиш соҳасидаги ваколатли органларнинг бепарволиги сабабли жиддий хато-камчиликларга йўл қўйилаётганлиги аниқланмоқда. Айтингчи, фуқароларнинг мерос қилиб қолдириладиган умрбод эгалик қилиш ҳуқуқи асосида ажратилган ер участкаларида якка тартибда уй-жой қуриш ҳуқуқи қайси Қонун ҳужжатлари билан кафолатланган?**

— Конституциямизнинг 31-моддасида "ҳар ким уй-жой дахлсизлиги ҳуқуқига эга" эканлиги, 47-моддасида эса "Ҳар ким уй-жойли бўлиш ҳуқуқига эга, ҳеч ким суднинг қарорисиз ва қонунга зид тарзда уй-жойидан маҳрум этилиши мумкин эмас. Уй-жойдан маҳрум этилган мулкдорга уй-жойнинг қиймати ҳамда у кўрган зарарларнинг ўрни қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибда олдиндан ҳамда тенг қийматда қопланиши таъминланади. Давлат уй-жой қурилишини рағбатлантиради ва уй-жойга бўлган ҳуқуқнинг амалга оширилиши учун шарт-шароитлар яратади. Аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифаларини уй-жой билан таъминлаш тартиби қонун билан белгиланади", деб кўрсатилган.

Бинобарин, ер-участка олиш, уй-жойга эга бўлиш ва қурилиш қилишнинг қонуний механизмлари мавжуд бўлишига қарамай, айрим фуқароларимиз йиллар давомида ўзлари эгаллаб олган ер участкаларида якка тартибда ноқонуний қурилишлар қилаётгани, айниқса, фермер ва деҳқон хўжаликлари учун маълум муддатга ижара шартномаси асосида ажратиб берилган ер участкаларида, аввало, ер эгалари, яъни ижарачиларнинг ўзлари қонунга зид равишда қурилишлар қилаётгани ёки муайян тўлов эвазига ўзга шахсларга ер участкаларини уй-жой қуриш учун ноқонуний бериб юбораётганлиги сир эмас.

Айниқса, чекка-чекка қишлоқларда бу муаммо оммавий тус олди ва уй-жой учун зарур ҳужжатларнинг йўқлиги аҳолида бошқа ижтимоий муаммоларни, хусусан ўзи яшаб турган жойга, яъни ўз уйига рўйхатга (пропискага) қўйиш, мулк ҳуқуқини белгиловчи ҳужжатларни, яъни кадастр ҳужжатларини расмийлаштира олмаслик каби бошқа муаммоларни юзага келтирди.

Оқибатда, кўпчилик фуқаролар ер ва қурилишлар учун қонуний кадастр ҳужжати олишда ёрдам сўраб Ўзбекистон Республикаси Президентига, давлат ҳокимияти органларига, сенатор ва депутатларга мурожаат қила бошлашди.

Муҳтарам Президентимизнинг аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш, уй-жойга доир ҳуқуқларини амалга ошириш, уларга қулай шарт-шароитлар яратиб бериш, ер участкаларидан оқилона ва самарали фойдаланиш, шунингдек, фуқароларга тегишли бўлган турар жойларни давлат рўйхатидан ўтказишда кўмаклашиш мақсадида 2018 йил 20 апрелда эълон қилинган "Фуқароларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар ҳамда ўзбошимчалик билан қурилган турар-жойларга нисбатан мулк ҳуқуқини эътироф этиш бўйича бир марталик умумдавлат акциясини ўтказиш тўғрисида"ги Фармони билан фуқароларнинг иморат қуриш учун рухсатнома олмасдан қурилган турар-жойларига ёки ўзбошимчалик билан эгаллаб олган ер участкаларига нисбатан мулк ҳуқуқини ва мулкка эгалик қилиш ҳуқуқини эътироф этишга, яъни кадастр ва бошқа ҳужжатларини расмийлаштиришга рухсат берилди.

2018 йилда ўтказилган бу бир марталик умумдавлат акцияси доирасида 91 мингдан ортиқ кўчмас мулк объектларига, яъни ўзбошимчалик билан эгаллаб олган ер участкаларига нисбатан мулк ҳуқуқини эътироф этувчи кадастр ҳужжатлари расмийлаштириб берилди.

Президентимизнинг бу инсонпарварлик сиёсати замирида эълон қилинган бир марталик умумдавлат акциясидан айрим сабабларга кўра фойдалана олмаган фуқароларимизга орадан 6 йил ўтиб, яна бир имконият яратилди. Бу имконият — 2024 йил 5 августда Президентимиз имзолаган "Ўзбошимчалик билан эгалланган ер участкалари ҳамда уларда қурилган бино ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш тўғрисида"ги (ЎРҚ-937-сонли) Қонун билан мустаҳкамлаб қўйилди.

Яъни, ер участкаси ва унда қурилган иморатга бўлган мулк ҳуқуқи, шунингдек ва ҳатто ортиқча эгаллаб олинган, яъни якка тартибда қурилган уй-жойга ва ер участкасига бўлган ҳуқуқни тасдиқловчи ҳужжатларда кўрсатилган ер участкаси майдонидан 2018 йил 1 майга қадар ортиқча эгаллаб олинган ер участкаларига ҳам ушбу Қонунда назарда тутилган тартибда ижара ҳуқуқи, ушбу ер участкаларида қурилган бинолар ва иншоотларга эса мулк ҳуқуқи эътироф этиладиган бўлди.

**— Ўз томорқасига, ўз ер участкасига эга бўлган ҳар бир киши ва ҳар бир оиланинг даромадида барака бўлиши унинг ўз ер участкаси ва ўз томорқасидан қай даражада самарали фойдаланишига боғлиқ, албатта. Айтингчи, 2028 йил 1 январга қадар амал қиладиган бу Қонунда фуқароларнинг ўзбошимчалик билан эгаллаб олган ер участкасига ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларини эътироф этишнинг қандай ҳуқуқий асослари белгилаб берилган?**

— Мазкур Қонунда ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкалари ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этишнинг аниқ тартиблари белгиланган бўлиб, хусусан: мазкур Қонуннинг 3-моддасида Ер участкасига ҳамда унда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш асослари, 4-моддасида Якка тартибда уй-жой қуриш орқали ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини ҳамда унда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган мулк ҳуқуқини эътироф этиш асослари, 5-моддасида Ортиқча эгалланган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини ҳамда унда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган мулк ҳуқуқини эътироф этиш асослари, 6-моддасида Кўчмас мулкка нисбатан ҳуқуқни эътироф этиш ишларини ташкил этиш бўйича туман (шаҳар) комиссиялари томонидан ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини ҳамда унда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган мулк ҳуқуқини эътироф этиш асослари, 7-моддасида Туман (шаҳар) ҳокимларининг ер участкаси ажратиш тўғрисидаги қарорларини тасдиқлаш масаласи кўриб чиқилмаган ҳолларда ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини ҳамда унда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган мулк ҳуқуқини эътироф этиш асослари, 8-моддасида Фуқароларнинг боғдорчилик ва узумчилик ширкатлари ҳудудида жойлашган турар жойларига бўлган мулк ҳуқуқини ҳамда улар эгаллаган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини эътироф этиш асослари, 9-моддасида Кичик саноат зоналари ҳудудларига жойлаштирилган тадбиркорлик субъектларининг яшаш учун мўлжалланмаган бинолари ва иншоотлари ёки уларнинг қисмлари жойлашган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини эътироф этиш асослари, 10-моддасида Хусусийлаштирилган бинолар ва иншоотлар эгаллаган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини эътироф этиш ва 11-моддасида Фуқароларнинг, якка тартибдаги тадбиркорларнинг ва резидент бўлган юридик шахсларнинг қонунчиликка мувофиқ мулк (эгалик қилиш) ҳуқуқи эътироф этилган бинолари ва иншоотлари эгаллаган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини эътироф этиш асослари, 12-моддасида эса Ер участкасига ҳамда унда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этишнинг қўшимча шартлари белгилаб берилган.

Энг муҳими, мазкур Қонун йиллар давомида турли сабабларга кўра тўла-тўкис қонуний ҳужжатларга эга бўлмаган ҳолда қурилган уй-жойлар ва участкаларга нисбатан бўлган ҳуқуқий муносабатларни тартибга солади ва шу билан бирга, кўплаб оилалар ҳаётига дахлдор ва узоқ йиллар аҳолини қийнаб келган ижтимоий муаммоларга ҳам ечим сифатида хизмат қилади. Шу сабабли ушбу Қонун халқимиз, тадбиркорларимиз ва мулк эгалари томонидан қизғин қарши олинди.

Мазкур Қонун ижросини таъминлаш жараёнида вилоятимиз бўйича 141.401 та кўчмас мулк объектлари хатловдан ўтказилди. Кейинги босқичда Қонуннинг 16-моддасига асосан хатлов маълумотлари эътироф автоматлаштирилган тизим орқали ваколатли ташкилотлар муҳокамасига чиқарилади. Бугунги кунда 48.342 та ваколатли ташкилотлар муҳокамасига чиқарилди бўлиб, 3142 та ортиқча эгалланган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқи ҳамда унда қурилган бинолар ва иншоотларга эса мулк ҳуқуқи эътироф этилди ва ҳоказо.

**— Жасур Давлатбоевич, Ер — умуммиллий бойлигимиз, ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш, ер муносабатлари соҳасида қонунийликни таъминлаш ва ерга оид қонун бузилиши ҳолатларини аниқлаш ва тегишли чоралар кўриш қандай шаклларда амалга оширилмоқда?**

— Ер ресурсларини самарали бошқариш ҳар қандай давлатнинг қудрати ва тараққиётининг асосий пойдеворидир. Айнан шу омил адолатли бошқарувни таъминлаб, барқарор иқтисодий ривожланишга йўл очади.

Ўзбекистонда кейинги йилларда бу борада муҳим Фармон ва қарорлар қабул қилиниб, улар асосида ерларни тақсимлаш ва самарали фойдаланишда туб ислоҳотлар бошланди. Бу ҳужжатлар шаффофлик ва очиқликни таъминлаш билан бирга давлат идоралари, хусусий сектор ва фуқаролар ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаб адолат ва тенглик тамойилларини қарор топтиришга хизмат қилади. Фуқаролар энди ер тақсимоти ва ердан фойдаланиш жараёни ҳақиқатан адолатли амалга оширилаётганига ишонч ҳосил қила бошлади.

Авваллари махсус ваколатли органлар томонидан тезкор ҳамкорлик йўлга қўйилмагани оқибатида маълумотлар ягона тизимда шакллантирилмай, соҳа тўлиқ назорат қилинмай қолаётганди. Бу эса, ўз навбатида, ер участкаларидан самарали фойдаланиш тизимини йўлга қўйиш, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар талон-тарож қилинишининг олдини олиш учун мазкур жараёнларга ахборот технологияларини кенг жорий қилиш, соҳада назоратни таъминлашда инсон омили аралашувини камайтириш заруратини пайдо қилаётир.

Шундан келиб чиқиб, Ер қонунчилигига қатъий риоя қилишни таъминлаш, ерларни ўзбошимчалик билан эгаллаб олиш, улардан мақсадсиз фойдаланиш ҳолатларини барвақт аниқлаш ва тегишли чоралар кўриш мақсадида Кадастр агентлиги томонидан "E-yer nazorat" автоматлаштирилган автомат тизими ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий этилди. Унга қадар барча ер назорати тадбирлари инсон омили аралашуви билан қоғозда бажарилган бўлса, янги тизимда барча ҳолат автоматлаштирилган тартибда рўйхатга олинади. Ҳар бир ҳолат бўйича мантиқий якунгача бўлган жараён назорат қилинади.

Энди "E-yer nazorat" ахборот тизимига ер муносабатларига оид ҳуқуқбузарликлар тўғрисида маълумотларни ўз вақтида киритиш ва ҳуқуқбузарликларга оид ишларни кўриб чиқиш натижалари тўғрисида маълумотларни жойлаштириш учун Кадастр агентлиги, Олий суд, Бош прокуратура, Ички ишлар вазирлиги, "Ўзагроинспекция", Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси Мажбурий ижро бюроси ва ҳудудий бўлинмалари ҳамда тегишли маҳаллий ижро этуви органлари масъулдир.

"E-yer nazorat" тизими — давлат ер назоратини юритишнинг ягона электрон платформаси бўлиб, 2026 йил 1 январдан бошлаб махсус ваколатли давлат органларининг ер қонунчилигига риоя қилмаслик, жумладан, ер участкаларидан мақсадсиз ва самарасиз фойдаланиш, ерларни ўзбошимчалик билан эгаллаш, бино ва иншоотлар қуриш ҳолатларини барвақт аниқлаш, уларга тегилши чоралар кўришга оид вазифа ва функциялари фақат ушбу тизим орқали амалга оширилади.

Шунингдек, "E-yer nazorat" тизими Ички ишлар вазирлигининг "Е — маъмурий иш", Олий суднинг "Адолат", Бош прокуратуранинг "Е-материал" ахборот тизимлари, Мажбурий ижро бюросининг ижро иши юритуви ягона электрон базаси ҳамда ҳокимликларнинг ижро интизоми идоралараро электрон тизими билан интеграция қилинади.

**— Жасур Давлатбоевич, Коррупция муаммоси ва унга қарши кураш масаласи энг долзарб вазифалардан бири. Чунки бу иллатнинг қулоч ёйиши иқтисодий ривожланишнинг секинлашишига, жиноятчиликнинг илдиз отишига ва айниқса, кадрлар сифатининг пасайшига сабаб бўлади. Шундай эмасми?**

— Дарҳақиқат, коррупция иқтисодий ривожланишни секинлашишига сабаб бўлувчи иллатлардан биридир. Соҳада "Қонун устивор — жазо муқаррар"лиги, тизимда фаолият кўрсатаётган ходимларни коррупцияга қарши курашиш бўйича доимий назорат ўрнатиш кераклиги, жумладан раҳбарларни энг биринчи вазифаси ходимларни энг ёмон иллат коррупцияга қарши курашиш бўйича назорат қилиш эканлиги ҳамда коррупциянинг салбий оқибатлари бўйича доимий равишда тарғибот-ташвиқот ишлари олиб борилмоқда.

Ер назорати, ердан оқилона фойдаланиш ва уни муҳофаза қилиш, ер муносабатлари соҳасида қонунийликни таъминлаш ва ерга оид қонун бузилиши ҳолатларини аниқлаш, соҳада кузатилиши мумкин бўлган коррупцион ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида Давлатимиз раҳбарининг 2025 йил 18 сентябрдаги "Ерга оид муносабатларда коррупциявий омилларни бартараф этиш механизмларини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори қабул қилинди.

Қарорга асосан, бошқармамиз томонидан ҳудудларда коррупцияга қарши курашиш бўйича назорат мониторинг тадбирлари ҳамда умумпрофилактик мазмундаги йиғилишлар ва давра суҳбатлари ташкил этилмоқда.

Хусусан, ўтган давр мобайнида маҳалла фуқаролар йиғинларида жами 26 та, ижтимоий тармоқлар орқали 67 та ҳуқуқий тарғибот тадбирлари амалга оширилди. Шу билан бирга, бошқарма ва ҳудудий бўлимлар биноларида аҳоли орасида кадастр тизимида учраши мумкин бўлган коррупцион жиноятларга нисбатан муросасиз кайфиятни шакллантиришга қаратилган 64 та профилактик тадбирлар ўтказилди.

Аниқланган қоидабузарликларни содир этган 11 нафар ходим билан: Бўка туман бўлимидан 1 нафар, Янгийўл туман филиалидан 3 нафар, Янгийўл шаҳар филиалидан 1 нафар, бошқарманинг Кўчмас мулкларни давлат рўйхатидан ўтказиш бўлимидан 2 нафар, Пискент туман филиалидан 1 нафар, Пискент туман бўлимидан 1 нафар, Қуйичирчиқ туман филиалидан 1 нафар ва Олмалиқ шаҳар филиалидан 1 нафар ходим билан меҳнат шартномалари бекор қилинди.

Шунингдек, Тошкент туман филиалидан 2 нафар ходимга эса интизомий жазо қўлланилди ва бундай савияси ва сифати паст ходимлар билан бутунлай "хайрлашиш" кескин йўлга қўйилган.

**— Жасур Давлатбоевич, шу ўринда Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири, файласуф ижодкор Абдулла Ориповнинг бир шеъри ёдимга тушди:**

***Ожиз банда, гапларимни***
***кўнгилингга олма,***
***Замин Аллоҳ мулки эрур,***
***сен чангал солма.***
***Мусофирсан, муҳожирсан,***
***ернинг устида,***
***Муддатингни яшадингми,***
***йўлингдан қолма!***

**Бу шеър Сиз юқорида айтган худди ана шу "савияси ва сифати паст ходимлар"га бағишлангандек...**

— Албатта, бугун мамлакатимиз ва ўз келажагини, обрў-эътиборини қадрлайдиган ҳар бир виждонли фуқаро бу фалсафани эсда тутмоғи даркор. Ҳалол меҳнат қилиш, ўз билими, куч-ғайрати ва ижодий қобилиятини халқимиз, мамлакатимиз ва ўз келажаги, обрў-эътибори йўлида сарфлаши керак.

Бошқача айтганда, тизимимизда ишлаётган ҳар бир ходим "Халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халққа хизмат қилиши керак", "Давлат — инсон учун" деган сиёсат бугун энг устувор мезон эканлигини англаб олмоғи зарур.

Бугунги кунда хизмат кўрсатиш ва аризаларни қабул қилиш тўлиқ электронлаштирилган бўлса-да, фуқароларнинг кадастр ходимларига мурожаат қилиш ҳолатлари ҳамда хатлов жараёнларини тезлаштириш мақсадида фирибгарлик, ер олди-сотдисига алданиш ҳолатлари учрамоқда.

Шу ўринда хатлов жараёнларини тезлаштиришнинг имкони йўқлигини, барча жараёнлар электрон тартибда амалга оширилишини, хатлов режаси ва унинг натижалари расмий сайт орқали эълон қилинишини эслатиб ўтиш лозим, деб биламан.

Кадастр соҳасида шаффофликни таъминлаш ва коррупциянинг олдини олиш устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Айниқса, уй-жойга бўлган эгалик ҳамда мулк ҳуқуқларини эътироф этиш жараёнларини тартибга солувчи юқоридаги ЎРҚ-937-сонли Қонун ижросини таъминлаш доимий назоратга олинган. Чунки, Президентимиз кўп бора таъкидлаганларидек, "...ислоҳотларимиз натижасини юртимизда яшаётган ҳар бир инсон, ҳар бир оила ўз кундалик ҳаётида ҳис этиб яшаши керак".

Мазкур қонун доирасида олиб борилаётган ишларимиз очиқлик ва адолатлилик тамойиллари асосида ташкил этилмоқда. Хатлов жараёнлари босқичма-босқич амалга оширилиб, ҳар бир мурожаат белгиланган тартибда кўриб чиқилмоқда. Фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ноқонуний ер эгаллаш ҳолатларининг олдини олиш ва мавжуд муаммоларни қонуний асосда ҳал этиш асосий эътиборда турибди.

Шу билан бирга, барча жараёнларнинг рақамлаштирилаётгани, хусусан, ахборот тизимлари орқали хизматлар кўрсатиш инсон омилини камайтириб, коррупция хавфини кескин пасайтиришга хизмат қилмоқда. Фуқароларга ноқонуний талаблар қўйиш, ортиқча тўловлар ундириш каби ҳолатларга нисбатан қатъий чоралар кўрилмоқда.

Кадастр органлари томонидан жойларда коррупцияга қарши курашиш борасида тушунтириш-тарғибот ишлари ҳам фаол олиб борилмоқда. Аҳолига хизматлар бепул ёки белгиланган давлат божи асосида кўрсатилиши, ноқонуний ҳаракатларга йўл қўймаслик зарурлиги мунтазам етказилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, кадастр соҳасида шаффофликни таъминлаш, қонун устуворлигини қарор топтириш ва коррупцияга қарши муросасиз кураш олиб бориш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Президентимиз таъкидлаганларидек, "Жамиятимизда коррупцияга қарши курашиш, халқимиз азалдан юксак қадрлаб келадиган, ҳамма нарсадан устун қўядиган адолат туйғусини ҳаётимизда янада кенг қарор топтиришни биз биринчи даражали вазифамиз, деб ҳисоблаймиз".

**— Самимий суҳбатингиз учун катта раҳмат!**

**Суҳбатни Саҳобиддин СИРОЖИДДИНОВ ёзиб олди.**

Bugungi O‘ZBEKISTON
2026-yil 14-aprel,
7-son (81)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

**Ҳар бир давлат хизматчиси ҳар куни ўзининг меҳнати билан эгаллаб турган лавозимига лойиқлигини исботлаши керак.**

# YANGI TASHABBUSLAR DENOV YOSHLARI MISOLIDA

*(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)*

Shu bois “mahalla-maktab-sport muassasasi-federatsiya” tizimi asosida yangi yondashuv joriy etilmoqda. Endilikda oliygoh rektorlari, federatsiyalar va mahalliy hokimliklar o‘rtasida hamkorlik kuchaytiriladi.

Dual ta’lim tizimi asosida sport yo‘nalishidagi talabalar murabbiylik faoliyatiga jalb qilinadi. Ular haftaning bir qismida o‘qib, qolgan vaqtida maktab va to‘garaklarda yoshlar bilan ishlaydi. Eng muhimi, bunday talabalarga murabbiylik va hakamlik sertifikatlari beriladi.

**Denov tajribasi — e’tiborga loyiq**

Bu borada Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika institutituda quyidagi imkoniyatlar yaratib berilgan. Ya’ni, 3 ta yopiq sport zallari va 5 ta yashil sport maydonlarida sportning katta va kichik futbol, valeyboll, qo‘l to‘pi, basketboll, stol tennisi, engil va og‘ir atletika, kamondan o‘q otish, kikboksing, dzyudo, kurash, bel olish kurashi, qo‘l kurashi, shaxmat, shashka turlari bo‘yicha tizimli to‘garaklar tashkil etilgan. Natijada talabalar qisqa vaqt ichida quyidagi “Talabalar ligasi”, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Universiada”, “Vazir kubogi”, “Hokim kubogi”, “Rektor kubogi” kabi OTM, viloyat, respublika, xalqaro va jahon musobaqalarida muntazam ishtirok etib kelinmoqda. Bu esa boshqa talabalar o‘rtasida sportga qiziqishni yanada oshirmoqda.

2025-yil yakunlariga ko‘ra, institut talabalari quyidagi natijalarga erishildi:

· 1 nafar jahon chempioni (O‘zbek jang san’ati) - Jumanazarov Valijon;

· 2 nafar jahon kubogi sovrinori (O‘zbek jang san’ati) O‘rolov Jamoliddin, (Kikbksing) — Hikmatova Jasmina;

· 1 nafar xalqaro turnir g‘olibi (Belolish kurashi) — Mirzayev Sanjar;

· 2 nafar xalqaro musobaqalar sovrindori (Kurash) — Abdulaxatov Alimardon, (Belolish kurashi) — Qulmurotov Javlonbek;

Shuningdek, talabalar orasida 6 nafar sport ustasi, 10 nafar sport ustaligiga nomzod hamda 30 dan ortiq sport razryadiga ega yoshlar borligi quvonarlidir.

Ayrim sportchilarimizning natijalari ham e’tiborga molik. Jumladan, para-pauerlifting bo‘yicha respublika chempionlari, kurash va taekvondo yo‘nalishida sovrindorlar, shuningdek, mini-futbol jamoasining respublika bosqichidagi muvaffaqiyatlari institut sport salohiyatining yuqori ekanini





ko‘rsatadi. Shuningdek, DTPI bugungi kunda 15 ta davlatning 94 ta universitetlari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan bo‘lib, aynan Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalari Turkiyaning Firat Universitetida akademik mobillik doirasida tahsil olib o‘z tajtibalarini oshirmoqda.

**Kelajak sari ishonch bilan**

Bugungi kunda DTPIda Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida 230 nafar talabalar tahsil olmoqda bularning barchasi va boshqa ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan sport to‘garaklariga qatnashadigan 1000 dan ortiq talabalar belgilangan sport platformalari orqali ro‘yxatdan o‘tib, faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, “Talaba yugur”, “Sport sinovlari”, “5000 qadam” kabi loyihalarda faol ishtirok etib ommaviy sportni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2026-yil uchun institutda sport natijalarini yanada yaxshilash, xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishish maqsadida aniq rejalar asosida mas’ul mutahassislarni jalb qilingan holda to‘garakalrni tashkil etildi.

Sport — bu sog‘lom jamiyat, barkamol avlod, vatanparvar inson sifatida shakllanish va kuchli davlat timsolidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sportni ommalashtirishga qaratilgan tashabbuslar o‘z samarasini beradi.

Barcha sport bilan shug‘ullanuvchilar quyidagi natijalarga erishadi. Ya’ni:

- sog‘lig‘i mustahkamlanadi;
- mushaklarni kuchayadi;
- semirishning oldini oladi;
- kayfiyatni ko‘taradi;
- chidamlilikni oshiradi;
- intizom va iroda tarbiyalaydi;
- immunitetni mustahkamlaydi;
- uyquni yaxshilaydi;
- yangi do‘stlar orttirishga yordam beradi;
- o‘ziga ishonchni oshiradi;
- mamlakat, xalqaro va jahon musobaqalarida g‘olib bo‘lib yurtimiz bayrog‘ini ko‘tartish orqali vatan ravnaqiga xizmat qo‘shadi.

Institutda turli sport musobaqalari va to‘garaklarni tashkil etish yoshlarning iqtidorini namoyon etishga yordam beradi. Bu esa kelajakda professional sportchilar yetishib chiqishiga ham zamin yaratadi.

Denov tajribasi esa shuni ko‘rsatadiki, tizimli yondashuv, zamonaviy infratuzilma va kuchli ruhlantirish natijasida yuqori sport natijalariga erishish, sog‘lom va vatanparvar faol yosh avlodini tarbiyalashga erishishamiz.

**O.RUZIYEV,**
**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori.**

# Respublikada ta’limning muhim bo‘g‘unida olib borilayotgan islohotlar

**So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish borasida keng qamrovli va tizimli islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida mehnat bozori talablariga mos, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.**

O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimi tubdan qayta tashkil etilib, ko‘p bosqichli model joriy etildi. Ushbu model kasb-hunar kollejlar, kasb-hunar maktablari va texnikumlarni o‘z ichiga oladi hamda ta’limning uzluksizligi va moslashuvchanligini ta’minlaydi. Mazkur tizim yoshlarning individual qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasb egallash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturlarining joriy etilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa bitiruvchilarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash va ularni bevosita ish faoliyatiga tayyorlash imkonini bermoqda.

Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi qator nufuzli xalqaro tashkilotlar, jumladan GIZ, KOICA, JICA, PEARSON BTEC bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

Shuningdek, Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilib, ularning ilg‘or tajribalari milliy tizimga tatbiq etilmoqda. Xususan, Germaniyaning dual ta’lim modeli asosida nazariy va amaliy ta’lim uyg‘unligi ta’minlanmoqda. Bu esa o‘quvchilarning ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita jalb etilishini kuchaytiradi.

Xalqaro hamkorlik doirasida:

· qo‘shma ta’lim dasturlari ishlab chiqilmoqda;

· pedagog kadrlar uchun malaka oshirish va stajirovkalar tashkil etilmoqda;

· zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar joriy etilmoqda;

· xalqaro standartlarga mos baholash tizimlari tatbiq etilmoqda.

Kasbiy ta’lim tizimida sifatni oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda o‘quv dasturlari muntazam ravishda yangilanib, mehnat



bozori talablariga moslashtirilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayoniga keng joriy etilmoqda.

Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

· natijaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini joriy etish;

· o‘quv jarayonini raqamlashtirish va elektron platformalarni kengaytirish;

· zamonaviy laboratoriya va amaliy mashg‘ulot bazasini mustahkamlash;

· ta’lim sifatini nazorat qilish va akkreditatsiya mexanizmlarini takomillashtirish.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta’limning ochiqligi va samaradorligi oshirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi — raqobatbardosh, yuqori malakali va moslashuvchan kadrlarni tayyorlashdir. Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimi o‘quvchilarda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki quyidagi kompetensiyalarni ham shakllantirishga qaratilgan:

· tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish;

· jamoada ishlash va samarali muloqot qilish;

· raqamli savodxonlik va innovatsion fikrlash.

Ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlik natijasida o‘quv dasturlari amaliy ehtiyojlarga moslashtirilmoqda, bu esa bitiruvchilarning bandligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlikning kengayishi, ta’lim sifatining oshirilishi hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga qaratilgan yondashuv mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur islohotlar natijasida O‘zbekiston nafaqat ichki mehnat bozori uchun, balki global miqyosda ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlay oladigan zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirmoqda.

**Dilshod SHOXIDOV,**
**Sergeli tuman 1-son texnikumi Topshiriqlarni bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha inspektori**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilgari surilgan takliflar mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalari qatori Namangan davlat universiteti oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali universitetning ilmiy salohiyati, ta’lim sifati va innovatsion faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish rejalashtirilmoqda.**

# Innovatsion rivojlanish yo‘lida: Namangan davlat universiteti istiqbollari



Birinchi navbatda, “U10 — O‘zbekistonning ilg‘or universitetlari” dasturi doirasida respublikamizdagi yetakchi oliy ta’lim muassasalari qatoriga kirish uchun universitetda ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish, xalqaro reytinglarda universitet ko‘rsatkichlarini yaxshilash, professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalari sonini ko‘paytirish, Scopus va Web of Science bazalaridagi nashrlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur dastur asosida milliy tadqiqot universiteti maqomini olish istiqbollari ham ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, ilmiy klasterlar tashkil etish masalasi ham universitet faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ladi. Ilmiy klasterlar universitet — ilmiy tashkilot — sanoat korxonalari — tarmoq korxonalari hamkorligida tashkil etilib, unda innovatsion loyihalar, ilmiy ishlanmalar va startap loyihalar amalga oshiriladi. Bu borada Namangan viloyatidagi yirik sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi tashkilotlari va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan hamkorlikni kengaytirish rejalashtirilmoqda.

2027-yildan boshlab universitetlarni milliy reyting natijalariga qarab moliyaviy rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi munosabati bilan universitetda ta’lim sifati, raqamlashtirish darajasi, bitiruvchilar bandligi, ilmiy faoliyat natijalari va xalqaro hamkorlik ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha kompleks dastur ishlab chiqiladi. Ayniqsa, Namangan viloyati va viloyat tumanlarida joylashgan korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali bitiruvchilar bandligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

“Yangi O‘zbekiston stipendiyasi” dasturi doirasida xorijiy talabalarni jalb etish, ingliz tilida ta’lim dasturlarini ko‘paytirish, qo‘shma ta’lim dasturlarini tashkil etish, akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish orqali universitetning xalqaro nufuzini oshirish rejalashtirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida Namangan davlat universitetini nafaqat Namangan viloyatida, balki butun O‘zbekiston Respublikasida nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

Spin-off korxonalar tashkil etish orqali universitetda yaratilayotgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish ham rejalashtirilmoqda. Bunda “tarmoq — korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” zanjiri asosida innovatsion hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Ayniqsa, Namangan viloyati tumanlarida kichik sanoat zonalari, qishloq xo‘jaligi klasterlari va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan hamkorlikda innovatsion loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat grantlari asosida ta’lim yo‘nalishlariga mablag‘ ajratishda yangi mezonlar joriy etilishi munosabati bilan universitetda mehnat bozori ehtiyojlariga mos ta’lim yo‘nalishlarini ochish, mavjud ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish, hududlar ehtiyojidan kelib chiqib yangi mutaxassisliklar tashkil etish bo‘yicha ishlar olib boriladi. Ayniqsa, Namangan viloyati va uning tumanlari uchun zarur bo‘lgan muhandislik, axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, universitetda raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish, elektron universitet platformasini takomillashtirish, sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini boshqarish tizimlarini joriy etish, elektron kutubxona va onlayn ta’lim resurslarini kengaytirish bo‘yicha ham ishlar amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar Namangan davlat universitetida ta’lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, Namangan viloyati va uning tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali universitetning O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimidagi o‘rni va nufuzi yanada oshadi.

**Musoxon DADAXANOV,**
**Namangan davlat universiteti Raqamli ta’lim texnologiyalar kafedrasi mudiri**

Bugungi O'ZBEKISTON
2026-yil 14-aprel,
7-son (81)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

**„Ватанга садоқат билан хизмат қилиш мактабини ўтаган навқирон ўғлонларимиз ишончли таянч ва суянч бўлиб хизмат қилади.**



# КИБЕРҲУЖУМЛАРДАН ҚАНДАЙ ҚИЛИБ ҲИМОЯЛАНИШ МУМКИН?

**Замонавий рақамли даврда технологиялар бизнес, давлат ва кундалик ҳаётнинг асосий қисмига айланган. Аммо бу боғлиқлик шахслар ва ташкилотларни киберҳужумларнинг кучайиб бораётган хавфига сабаб бўлди. Фишинг хабарларидан тортиб мураккаб “ransomware” операцияларигача бўлган ҳужумлар нафақат молиявий барқарорликка, балки рақамли тизимларга бўлган ишончга ҳам таҳдид солмоқда. Ҳуқуқий ҳимоя бундай ҳужумларнинг олдини олиш, жавобгарликни белгилаш ва глобал киберхавфсизлик стандартларини ривожлантиришда асосий роль ўйнайди.**

Хўш, киберҳужумларга қарши ҳуқуқий ҳимоя борми? Мавжуд тизимларнинг қийинчиликлари нимада? Хавфсиз рақамли келажакни таъминлаш учун уларни қандай кучайтириш керак?

Келинг, ушбу саволларга атрофлича жавоб қидирамиз.

Рақамли технологиялар тобора мураккаблашиб бораётгани сабабли, кибержиноятлар ҳам ривожланмоқда. Бу нафақат шахсий фойдаланувчилар, балки глобал корхоналар ва давлат инфратузилмалари учун ҳам жиддий хавф туғдиради. Статистик маълумотларга кўра, дунё бўйлаб ҳар 5 сонияда бир “ransomware” ҳужуми амалга оширилади. Бу эса компанияларни миллионлаб доллар зарар ва операцион тўхталишларга олиб келади. Киберҳужумларнинг мақсади тобора кўпроқ ижтимоий ва иқтисодий ҳаётнинг муҳим жиҳатларига қаратилмоқда. Мисол учун, АҚШдаги “Colonial Pipeline” компаниясига қилинган “ransomware” ҳужуми Европа ва АҚШ энергетика бозорларига салбий таъсир кўрсатди. Бунинг натижасида бутун ҳудуд бўйлаб ёқилғи танқислиги юзага келди. Бу каби ҳолатлар киберхавфсизликнинг аҳамиятини янада оширади ва ҳуқуқий ҳимоя тизимларини кучайтиришни талаб қилади. Бундан ташқари, киберҳужумлар йилдан йилга янада нозик ва мураккаб усуллардан фойдаланмоқда.

Фишинг ҳужумлари дастлаб фақат хатоларни ўрганувчи фойдаланувчиларга қаратилган бўлса, бугунги кунда улар сунъий интеллект ва автоматлаштирилган воситалар ёрдамида кенг миқёсда амалга оширилмоқда. Масалан, хакерлар айнан корхона раҳбариятининг овозини такрорлаш учун деепфаке технологияларидан фойдаланиб, молиявий маблағларни ўзлаштиришга муваффақ бўлмоқда. Киберхавфсизликда ҳуқуқий ҳимоянинг ўрни киберхавфсизликда ҳуқуқий ҳимоя қонунчилик асослари орқали муаммоларни тизимли равишда ҳал қилишга имкон беради.

Биринчи навбатда, қонунлар ташкилотлардан муайян стандартларга риоя қилишни талаб қилади. Бу эса киберхавфсизликни кенг миқёсда оширишга хизмат қилади. Халқаро миқёсда масалан “Yevropa Ittifoqining GDPR” қонуни нафақат шахсий маълумотларни ҳимоя қилишни таъминлайди, балки ташкилотларга киберҳужумларга қарши махсус хавфсизлик чораларини амалга ошириш мажбуриятини юклайди. Ушбу қонун ҳужжати бошқа давлатлар учун маълумотлар хавфсизлигини таъминлаш учун андаза бўлиб хизмат қилади. Бундан ташқари ҳуқуқий ҳимоя киберҳужумлар натижасида жабрланганлар учун судга мурожаат қилиш имкониятини беради. Агар ташкилотлар ўз маълумотларини етарли даражада ҳимоя қила олмаган бўлса, жабрланган шахслар ёки компаниялар уларга қарши даъво аризаси бериши мумкин. Масалан, “Facebook”нинг “Cambridge Analytica” можароси натижасида компания миллиардлаб доллар микдорида жаримага тортилди. Бу эса ташкилотларни киберхавфсизликни кучайтиришга ундайди. Глобал миқёсдаги ҳамкорликнинг аҳамияти, киберҳужумларнинг ўзига хос хусусияти шундаки, улар кўпинча халқаро чегаралардан ўтиб амалга оширилади. Бу эса ҳуқуқий чораларни қабул қилишда қўшимча қийинчиликларни келтириб чиқаради.

“Будапешт конвенцияси” халқаро даражадаги асосий ҳуқуқий ҳужжат сифатида киберjиноятларга қарши курашда давлатлараро ҳамкорликни таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Ушбу келишув давлатларга киберjиноятчилик ҳолатларини ўрганиш ва жиноятчиларни жазолашда биргаликда ишлаш имконини яратади. Аммо кўп давлатларда киберjиноятчиликка қарши қонунчилик етарли даражада ривожланмаган. Айрим давлатларда ҳуқуқий бўшлиқ мавжуд бўлиб, бу ҳудудлар жиноятчилар учун “хавфсиз бошпана”га айланади.

Халқаро даражада қонунчиликни уйғунлаштириш ва барча давлатлар учун мажбурий стандартларни жорий этиш киберjиноятчиликка қарши курашда самарали восита бўлади. Киберхавфсизлик тизимларининг самарадорлигини оширишда жавобгарлик ва маълумотлар махфийлигини таъминлаш энг муҳим жиҳатлардан биридир. Ушбу тамойиллар шахсий маълумотларни ҳимоя қилишни таъминлаш, киберҳужумларнинг олдини олиш ва ташкилотларнинг ўз вазифаларига масъулият билан ёндашишини рағбатлантиришга қаратилган. Киберjиноятчилик бўйича жавобгарлик масалалари кўпинча маълумотлар хавфсизлигидаги сусткашлик ёки эҳтиётсизлик оқибатида юзага келади. Компаниялар ўзларининг инфратузилмасини ҳимоя қилиш учун етарлича чоралар кўрмаган бўлса, уларга молиявий жарималар, суд ишлари ва обрўсига путур етиши мумкин бўлган қарши қонуний ҳаракатлар қўлланилади. Бунда қонунлар масалан “Yevropa Ittifoqining GDPR” қонуни катта аҳамиятга эга. Ушбу қонун нафақат компанияларга қаттиқ талаблар қўяди, балки фойдаланувчиларнинг шахсий маълумотлари устидан назоратни таъминлаш имкониятини ҳам оширади.

Маълумотларнинг махфийлигини таъминлашнинг аҳамияти шундаки, рақамли иқтисодиётда маълумотлар энг қимматбаҳо ресурсдир. Ташкилотлар мижозларининг шахсий маълумотларини тўплаш, сақлаш ва қайта ишлаш орқали хизматларини яхшилайди, маркетингни ривожлантиради ва фойда олишга эришади. Лекин ушбу маълумотларнинг нотўғри бошқарилиши ёки ҳимоясизлиги киберjиноятчилик учун улкан имконият яратади. Шахсий маълумотларнинг бузилиши натижасида одамларнинг молиявий ҳолатига зарар етиши ёки улар ўзларининг идентификация маълумотларини йўқотиши мумкин. Масалан, “Equifax” маълумотлар бузилиши натижасида 143 миллион американинг шахсий маълумотлари, шу жумладан, ижтимоий хавфсизлик рақамлари ва кредит тарихлари бузилган эди. Бу эса жамоатчиликнинг компанияларга ва уларнинг маълумотлар бошқариш усулларига бўлган ишончини кескин пасайтирган.

Махфийликни таъминлашнинг бир қисми сифатида ҳуқуқий ҳимоя жабрланган шахсларнинг ҳуқуқларини кафолатлайди. Жабрланганлар бузилган маълумотлар асосида ташкилотларга қарши даъво қилиш ва зарарларни қоплашни талаб қилиш ҳуқуқига эга. Бу эса компанияларни ўз маълумотларини ҳимоя қилишга янада жиддий ёндашишга ундайди. Ташкилотлар мижозларнинг шахсий маълумотларини тўплашдан олдин уларни қандай ишлатиши ва қандай ҳимоя қилиши ҳақида аниқ маълумот беришга мажбур. Бу одатда махфийлик сиёсати орқали амалга оширилади.



Махфийлик сиёсати мижозларни хабардор қилиш билан бирга компанияларни ўз мажбуриятларига амал қилишга ундайди. GDPR доирасида ташкилотлар учун бир нечта муҳим мажбуриятлар мавжуд: рухсат олиш: мижозлардан шахсий маълумотларни қайта ишлаш учун аниқ рухсат сўралиши керак. Маълумотларга кириш ҳуқуқи: фойдаланувчилар ўз маълумотларига кириш ва уларни ўчиришни талаб қилиш имкониятига эга бўлишлари лозим. Маълумотларни минималлаштириш: ташкилотлар фақат керакли ва тегишли маълумотларни тўплаши керак. Бузилиш ҳақида хабар бериш: маълумотлар бузилган тақдирда, бу ҳақида зудлик билан тегишли ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ва жабрланган шахсларга хабар бериш мажбурий. Бу мажбуриятлар ташкилотларни фойдаланувчилар маълумотларига эҳтиёткорлик билан ёндашишга ундайди. Бунда асосий эътибор нафақат қонун талабларига риоя қилишга, балки бренд обрўсини ҳимоя қилишга ҳам қаратилади.

Киберjиноятчиларга қарши самарали жавоб чоралари қабул қилиш ҳуқуқий тизимнинг ажралмас қисмидир. Киберjиноятчиликни жиноят деб белгилаш ва жиноятчиларга жазо чоралари қўллаш орқали қонунлар жиноятчиларнинг бундай ҳаракатлардан сақланишига сабаб бўлади.

Кўплаб мамлакатлар, жумладан, АҚШ, Буюк Британия ва Европа давлатлари киберjиноятчиликка қарши қонунчиликни кучайтирган. Мисол учун, АҚШда “Computer Fraud and Abuse Act” (CFAA) киберҳужумларни жиноят деб эълон қилади ва рухсатсиз кириш, маълумотларни ўғирлаш ёки бузиш учун қаттиқ жазо чоралари кўрилади. Бундай қонунлар жиноятчиларга жиддий тўсиқ яратади ва киберҳужумлар миқёсини камайтиради. Шунингдек, халқаро миқёсда Будапешт Конвенцияси каби шартномалар мамлакатлараро ҳамкорликни таъминлайди. Бу эса жиноятчиларни аниқлаш ва жазолашни осонлаштиради ва айниқса, бу ҳужумлар трансчегаравий характерга эга бўлганда. Фойдаланувчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш киберjиноятчиликда шахсий ҳуқуқларни ҳимоя қилиш муҳим жиҳат ҳисобланади. Жабрланганлар ўзларининг шахсий ҳуқуқларини бузган компаниялар ёки шахслар устидан даъво қилиш имкониятига эга. Қонунчиликнинг ушбу қисми нафақат жабрланганларга адолатни таъминлашга, балки компанияларнинг шахсий маълумотларни қайта ишлашда масъулиятли бўлишини таъминлашга ҳам хизмат қилади. Масалан Калифорния истеъмолчилар махфийлик қонуни (CCPA) Калифорния штатидаги фойдаланувчиларга ўз маълумотларини назорат қилиш имконини беради. Фойдаланувчилар ўзларининг маълумотлари қаерда сақланаётганини, кимга сотилганини билиш ва уни ўчиришни талаб қилиш ҳуқуқига эга. Махфийликни таъминлашда илғор технологиялар роли рақамли дунёда технологиялар маълумотларни ҳимоя қилиш учун катта имкониятларни тақдим этади. Шифрлаш технологиялари маълумотларни фақат рухсат этилган шахслар томонидан ўқилиши мумкин бўлган шаклда сақлашга имкон беради. Блокчейн технологияси эса маълумотларнинг ўзгартирилмаслигини таъминлайди. Бу эса ҳужумчилар учун уларни манипуляция қилишни деярли имконсиз қилади. Сунъий интеллект асосида ишловчи хавфсизлик тизимлари ҳужумларни олдиндан аниқлаш ва уларнинг олдини олиш имкониятини оширади. Мисол учун, хавфсизлик мониторинг тизимлари реал вақт режимида фаолият юритувчи хавф-хатарларни аниқлаш ва дарҳол жавоб чораларини кўриш имкониятини беради. Рақамли технологияларнинг ривожланиши ва ҳуқуқий талаблар сунъий интеллект, блокчейн, ва IoT (Internet of Things) каби янги технологияларнинг ривожланиши киберхавфсизлик соҳасида янги имкониятлар ва таҳдидларни келтириб чиқармоқда. Ушбу технологиялар бир томондан киберҳужумларнинг олдини олиш ва реал вақт режимида таҳлил қилиш имконини берса, бошқа томондан улар жиноятчилар томонидан суиистеъмол қилиниши мумкин. Мисол учун, IoT қурилмалари ҳимояланган бўлмаса, улардан кенг миқёсдаги DDoS ҳужумларини амалга ошириш учун фойдаланиш мумкин.

Ҳуқуқий талабларни янгилаб IoT қурилмаларининг хавфсизлигини таъминлаш халқаро миқёсда долзарб масалага айланмоқда. Шунингдек, сунъий интеллект асосида ишловчи дастурларни назорат қилиш учун махсус қонунлар жорий этилиши зарур. Ҳуқуқий ҳимоя ва келажакдаги йўналишлар киберхавфсизликда ҳуқуқий ҳимоя узоқ муддатли стратегияга эга бўлиши керак. Бу стратегияда қуйидаги йўналишлар асосий ўрин эгаллайди:

1. Қонунчиликни мунтазам янгилаш: технологиялар тез ривожланаётган шароитда, қонунчилик тизими доимий равишда мослашиб бориши зарур.

2. Киберхавфсизликка сармоя киритиш: ҳукумат ва хусусий сектор киберхавфсизлик бўйича илғор технологиялар ва кадрлар тайёрлашга эътибор қаратиши лозим.

3. Таълим ва хабардорликни ошириш: аҳоли ва корхоналарни киберхавфсизликка оид хавф-хатарлар ҳақида хабардор қилиш, шунингдек, ходимлар учун мунтазам тренинглар ташкил этиш муҳимдир.

4. Халқаро ҳамкорликни кучайтириш: давлатлараро ҳамкорлик ва ахборот алмашиш киберjиноятчиликка қарши самарали восита ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, киберхавфсизликда ҳуқуқий ҳимоя киберjиноятларга қарши курашда муҳим ўринни эгаллайди. Қонунчиликнинг аниқ ва қатъий бўлиши нафақат ташкилотлар ва шахсларни ҳимоя қилишга, балки жиноятчиликнинг олдини олишга ҳам хизмат қилади. Рақамли технологиялар ривожланаётган даврда ҳуқуқий тизимнинг мослашувчанлиги ва глобал миқёсдаги ҳамкорлик киберхавфсизликни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Киберҳужумлар хавфини камайтириш учун таълим, технологиялар ва ҳуқуқий тизимлар ўзаро уйғунлашган ҳолда ишлаши керак. Кучли ҳуқуқий ҳимоя орқали рақамли келажакни хавфсиз, барқарор ва ишончли қилиш мумкин.

**Ҳ.ҚОДИРОВ**

Bugungi O'ZBEKISTON
2026-yil 14-aprel,
7-son (81)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

**Китоб ўқиган, ўзини устида ишлаган одамда қанот бўлади. У бефарқ бўлмайди. Унинг кучи билимида бўлади. Шунинг учун ҳеч кимни писанд қилмайди. ”Катталар”га хушомад қилмайди. Унинг билими бор, илми бор. Мана нима учун китоб ўқинглар деймиз. Китоб ўқисангиз савол беришни биласиз.**

# МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – УЛУҒЛАНГАН МАСКАН

**Юртимизда таълим тизимини такомиллаштириш, ёшларни маънавий баркамол, ватанпарвар ва юксак интеллектуал салоҳиятли шахслар этиб тарбиялаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган бўлиб, бугунги кунда олий таълим муассасалари олдига улкан вазифаларни қўймоқда. Ана шу масъулиятли жараёнда Шаҳрисабз давлат педагогика институти жамоаси томонидан амалга оширилаётган кенг кўламли маънавий-маърифий, илмий ва ижодий тадбирлар алоҳида эътиборга лойиқдир.**



Жорий йилнинг март ойи институт ҳаётида, айниқса сермазмун ва серқирра тадбирларга бой бўлди. Ушбу тадбирлар ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг ижодий ва интеллектуал салоҳиятини намоён этиш, миллий қадриятлар ва анъаналарни тарғиб қилишга хизмат қилди.

Аввало, март ойи бошида ўтказилган маънавий-маърифий тадбирлар алоҳида аҳамият касб этди. Бу тадбирлар ўзбек шеъриятининг гўзал ва нафис овози — Зулфия Исроилова таваллуд топган кун сифатида кенг нишонланди. Шу муносабат билан институтда "Зулфияхоним издошларимиз" шиори остида кенг кўламли маънавий-маърифий тадбирлар ва видео-челленжлар ташкил этилди. Унда турли факультет талаба-қизлари шоира ижодидан намуналарни ифодали ўқиб, унинг маънавий меросини тарғиб этдилар. Бу ташаббус нафақат адабий муҳитни жонлантирди, балки ёшларда шеъриятга бўлган муҳаббатни янада оширди.

Шунингдек, 8-март Халқаро хотин-қизлар куни муносабати билан "Муқаддас аёл" мавзусида ташкил этилган ўнлаб тадбирлар, "Келажак соати" доирасидаги "Маърифат дарслари" ҳам катта тарбиявий аҳамиятга эга бўлди. Ушбу дарсларда аёлнинг жамиятдаги ўрни, оналик шаъни, инсонпарварлик ва меҳр-оқибат каби олий қадриятлар ҳақида фикр юритилди. Дарслар интерактив усулларда, видеороликлар ва савол-жавоблар орқали ташкил этилиб, ўқувчиларда чуқур таассурот қолдирди.

Институтда ўтказилган яна бир муҳим тадбир — "Юзма-юз" ижодий-маърифий лойиҳаси доирасида ёзувчи ва шоира Шаҳодат Исахонова билан бўлиб ўтган учрашув бўлди. Республика миқиёсидаги талаба ва мутахасис ўқитувчилар иштирок этган тадбирда талабалар адибанинг "Турон маликалари" туркумига кирувчи асарлари — "Бибихоним", "Нодирайи даврон", "Гавҳаршод бегим" каби тарихий романлари юзасидан фикр алмашдилар. Учрашув давомида ўтказилган адабий тақризлар танлови эса талабаларнинг таҳлилий фикрлаш қобилиятини намоён этди.

Учрашув давомида ўтказилган адабий тақризлар танлови эса талабаларнинг таҳлилий фикрлаш қобилиятини намоён этди. Танлов якунига кўра ғолиблар аниқланиб, уларнинг ижодий ёндашуви, бадиий-эстетик таҳлил маҳорати ва асар моҳиятини чуқур англаш қобилияти юқори баҳоланди. Хусусан, биринчи ўринга сазовор деб топилганлар — Шарофат Ашурова, Дилбар Махаммадиева ҳамда Нилуфар Дурматова бўлиб, улар тақдим этган тақризлар мазмунан бойлиги ва илмий-бадиий ёндашуви билан ажралиб турди.

Иккинчи ўрин соҳиблари сифатида Қурбонали Азизов, Малика Зиёдуллаева ва Озодбек Йигиталиев муносиб кўрилди. Уларнинг ишларида асарларга мустақил фикр билдириш, тарихий манбалар билан боғлиқ таҳлиллар юритиш қобилияти яққол намоён бўлди.

Учинчи ўрин эса Элбой Кулмонов, Ҳамида Мумтоз ва Рисолат Жумаевага насиб этди. Улар ҳам ўз тақризларида адабий меросга ҳурмат ва чуқур қизиқиш билан ёндашганликларини намоён этдилар.

Шунингдек, бир қатор фаол иштирокчилар муаллиф китоблари ва сара адабиётлар тўплами билан тақдирланиб, уларнинг ижодий изланишлари рағбатлантирилди. Бу эса танловнинг нафақат рақобат, балки илҳом ва маънавий ўсиш майдонига айланганини кўрсатади.

Ёшларнинг ижодий фаоллигини рағбатлантириш мақсадида "Жадидлар жасорати — миллатимиз фахри" ва "Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари" мавзуларида иншолар танлови эълон қилинди. Бу танловлар ёшларни тарихий меросга мурожаат қилишга, миллий ўзликни англашга ундаётган муҳим маънавий лойиҳалардан бири сифатида аҳамиятлидир.

Баҳор фаслининг кириб келиши муносабати билан "Хуш келдинг, ўлкамга баҳор", "Қалбларда баҳор " каби маданий тадбирлар ташкил этилди. Уларда талабалар томонидан шеърлар, қўшиқлар ва саҳна кўринишлари намойиш этилди. Бу тадбирлар ёшларнинг ижодий салоҳиятини очишга хизмат қилди.

Шу билан бирга, "Китобхонлик" клуби доирасида Пойон Равшановнинг "Малика кенағас ойим" асари таҳлил қилиниб, қизғин баҳс-мунозаралар ўтказилди. Бу каби адабий муҳокамалар талабаларнинг бадиий тафаккурини ривожлантиришда муҳим ўрин тутади.

Спорт соҳасида ҳам институтда фаоллик юқори бўлди. "Амир Темур ворислари" ҳарбий-спорт мусобақаси, "Талабалар лигаси" доирасидаги бадминтон мусобақалари ҳамда қизлар ўртасида ўтказилган велопойга ёшларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришга хизмат қилди.

Маънавий-маърифий тадбирлар қаторида "Аёл — меҳр ва садоқат тимсоли", "Нафосат маликалари", "Балли қизлар" каби кўрик-танловлар ҳам ташкил этилди. Ушбу тадбирлар орқали талаба-қизларнинг билим, истеъдод ва маданий салоҳияти намоён этилди.

Экологик маданиятни юксалтириш мақсадида "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси доирасида дарахт экиш акциялари, ободонлаштириш ишлари амалга оширилди. Бу эса ёшларда табиатга меҳр ва масъулият туйғусини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этди.

Шаҳрисабз давлат педагогика институтида амалга оширилган мазкур тадбирлар ёшларни ҳар томонлама баркамол шахс сифатида тарбиялаш, уларнинг маънавий дунёқарашини бойитиш, ижодий ва интеллектуал салоҳиятини юксалтиришга қаратилган изчил саъй-ҳаракатлар самарасидир. Бу каби тадбирлар нафақат таълим жараёнини бойитади, балки келажак авлодни маънавий етук, ватанпарвар ва фидойи инсонлар этиб тарбиялашда мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилади.



Шаҳрисабз давлат педагогика институтида "Наврўзни улуғлаш — инсонни улуғлашдир!" шиори остида ўтказилаётган байрам сайли нафақат миллий қадриятлар тарғиби, балки инсон қадрини эъзозлаш, меҳнат ва садоқатни муносиб баҳолаш анъанасига айланди.

Айниқса, байрам доирасида ташкил этилган тақдирлаш маросими тадбирнинг энг таъсирли ва руҳий жиҳатдан юксак палласи бўлди. Таълим-тарбия жараёнида фидойилик кўрсатаётган, жамоат ишларида фаол иштирок этиб келаётган профессор-ўқитувчилар ҳамда ходимлар институт раҳбарияти томонидан алоҳида эътироф этилди. Уларга тантанали равишда ташаккурномалар топширилиб, бу эътибор ва ҳурмат ҳар бир устоз ва ходим қалбида ифтихор ва масъулият туйғусини янада мустаҳкамлади.

Бу каби эътирофлар — меҳнат қадрини англаш, инсонни улуғлаш ва жамоада соғлом маънавий муҳитни шакллантиришнинг ёрқин намунасидир. Зеро, Наврўз руҳи айнан шундай — инсонни қадрлаш, меҳр-оқибатни улуғлаш ва эзгуликни кенг ёйиш ғоялари билан уйғун.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, институтда ўтказилаётган бу каби маънавий-маърифий ва байрам тадбирлари нафақат талабалар, балки бутун жамоа ҳаётига янги руҳ, янги илҳом бахш этмоқда. Улар орқали миллий қадриятларга ҳурмат, жамоавий бирлик ва маънавий баркамоллик тамойиллари янада мустаҳкамланиб, келажак авлод тарбиясига хизмат қилувчи мустаҳкам пойдевор яратилмоқда.

**Жамшид ШОНАЗАРОВ,**
**Шаҳрисабз давлат педагогика институти Ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича биринчи проректори**

# Ҳоким битирувчи талабалар билан учрашди




**Нафақат вилоятда балки Республикада ҳам ўз ўрни ва салоҳиятига эга бўлган Денов тадбиркорлик ва педагогика институтида малакали кадрлар тайёрлаш борасида ибратли ишлар амалга оширилмоқда. Барча соҳаларда мана шу олийгоҳни тугатган талабалар меҳнат фаолиятини олиб бормоқда. Айни дамда институтда 4 та факультет 16 та кафедра, 329 нафардан ортиқ профессор-ўқитувчилар талабаларга пухта билим беришмоқда. Мамлакатимиз Президенти топшириғига асосан, туман ҳокимлари олий таълим муассасаларида таълим олаётган битирувчилар билан учрашувлар ўтказмоқда.**

**Мана шундай учрашувлардан бири Денов тадбиркорлик ва педагогика институтининг фаоллар залида бўлиб ўтди. Унда Олтинсой туман ҳокими Отабек Мавлонов иштирок этиб, олтинсойлик битирувчилар билан дилдан суҳбатлашди. Нотиқ ўз сўзида бугунги кунда Олтинсой туманида олиб борилаётган ибратли ишлар ва халқ фаравонлиги ва юрт ободлиги йўналишидаги хайрли ишлар юзасидан атрофлича маълумотлар берди. Шундан сўнг талабалар ўзларини қизиқтирган саволларига атрофлича жавобларни олди.**

**Олтинсой туман ҳокими Отабек Мавлонов билан битирувчи талабалар ўртасидаги самимий мулоқот йиғилганларда катта таассурот қолдирди.**

**Ўз мухбиримиз.**

# "Payshanba – Yoshlar kuni" munosabati bilan Oltinsoy tumanidagi 2-son texnikumida yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi





**Mazkur uchrashuvda tuman hokimi Otabek Mavlonov, tuman prokurori Ravshan Turdiyev hamda Ichki ishlar bo'limi boshlig'i Dilmurod Qurbonov ishtirok etdi. Muloqot davomida yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim sifati hamda ularning bilim olishga bo'lgan intilishlari o'rganildi.**

**Shuningdek, rahbarlar tomonidan yoshlarga zamonaviy kasb-hunar egallash, vatanparvarlik ruhida kamol topish va o'z iqtidorlarini namoyon etish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi. Uchrashuv samimiy va ochiq muloqot tarzida o'tib, yoshlarni qiynayotgan masalalar yuzasidan fikr va takliflar tinglandi.**

**Bunday tadbirlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.**

**H.QODIROV**

Bugungi O'ZBEKISTON
Ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy, madaniy-ma'rifiy gazeta
МУАССИС ВА ҲАМКОРЛАРИМИЗ:
Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, вазирлик ҳузуридаги касбий таълим Агентлиги, Ўзбекистон судьялари Ассоциацияси, "BUGUNGI DAVR" МЧЖ

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:
Убайдулла МИНГБОЕВ (таҳрир ҳайъати раиси), Қўнғиротбой ШАРИПОВ, Абдусаид КЎЧИМОВ, Улуғбек ҚОСИМОВ, Азимжон ҲУСАНОВ, Соатмурод ЖУМАЕВ (Бош муҳаррир ўринбосари), Ҳикматуллоҳ ҚОДИРОВ, Ғулом МИРЗО, Тоштемир ТУРДИЕВ

Бош муҳаррир: Соатмўмин ЖУМАЕВ

Газета Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2021 йил 20 декабрда №1491 рақами билан рўйхатга олинган.

t.me/bugungi_uzbekiston_gazetasi

НАШР ИНДЕКСИ — 298

Газета таҳририят компьютер марказида терилди ва саҳифаланди.

Газетадан кўчириб босилганда "Bugungi O'ZBEKISTON"дан олингани кўрсатилиши шарт.

Газетада эълон қилинган материаллардаги фактлар учун муаллиф жавоб беради.

Қоғоз бичими А-2. Ҳажми 4 босма табоқ.

Баҳоси келишилган нархда.

Нашр учун масъул: Ҳикматуллоҳ ҚОДИРОВ

Таҳририят манзили: 100011, Тошкент шаҳри, Навоий кўчаси, 30-уй,

Телефонлар: (71)-244-33-82, +99890-927-99-91, +99888-702-15-71

Газета "ШАРҚ" НМАК босмахонасида чоп этилди. Босмахона манзили: Тошкент шаҳри, Буюк Турон кўчаси, 41.

Босмахонага топшириш вақти — 20.00

Топширилди — 17.00.

Адади — 2500.

Буюртма - Г-406

1 2 3 4 5 6

Bugungi O‘ZBEKISTON

2026-yil 14-aprel,
7-son (81)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com



**Маърифатпарвар жадид боболаримизнинг бу сўзлари депутат ва сенаторларимиз, сиёсий партиялар, маҳаллий кенгашлар, бутун давлат аппарати, кенг жамоатчиликнинг амалий ҳаракатига айланиши керак.**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
ҚАРОРИ

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ 35 ЙИЛЛИГИНИ КЕНГ НИШОНЛАШГА ТАЙЁРГАРЛИК КЎРИШ ВА УНИ ЎТКАЗИШ ТЎҒРИСИДА

*(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)*

г) мустақилликнинг 35 йиллиги арафасида мамлакатимизнинг йирик саноат, маданият, таълим ва спорт муассасаларининг тантанали очилиш маросимларини юқори савияда ташкил этиш чораларини кўрсин.

3. Белгилансинки, Маданият вазирлиги Тошкент шаҳрида бўлиб ўтадиган асосий байрам тадбирига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича масъул ташкилот ҳисобланади.

4.Бадиий академия, Маданият вазирлиги, Ёзувчилар уюшмаси, Республика Маънавият ва маърифат маркази 2026 йил 1 июнга қадар миллий мустақиллик ва суверенитет ғояларини, Янги Ўзбекистон бунёдкорлари қиёфасини ўзида акс эттирган **“Ватан фидойилари”** рамзий монументининг эскиз лойиҳасини ишлаб чиқсин ва Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

Ушбу монумент Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, туман ва шаҳарларда 2026-2030 йилларда барпо этилаётган умуммиллий бирдамлик боғларининг марказий қисмида ўрнатилиши ҳисобга олинсин.

5. Республика Маънавият ва маърифат маркази Янги Ўзбекистон тараққиёти тадқиқотлари институти, “Юксалиш” умуммиллий ҳаракати, “Тараққиёт стратегияси” маркази билан биргаликда 2026 йил 1 августга қадар ҳар бир соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар, уларнинг натижалари ва эришилган ютуқларга бағишланган **“Мустақиллик зафарномаси”** махсус китоб-альбомини тайёрласин.

6. Ёшлар ишлари агентлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази 2026 йил апрель ойидан ижтимоий тармоқларда #Mustaqillik35, #Uzb35 хештеглари остида тарғибот акцияларини (флешмоблар, подкастлар, викторина ва бошқалар) бошласин.

7. Кинематография агентлиги, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ўзбекистон миллий медиа бирлашмаси 2026 йил апрель ойидан бошлаб **“35 йиллик Истиқлол йилномаси”** рукнида мустақиллигимизнинг тарихий босқичлари, эришилган ютуқлар ва бунёдкорлик ишларини ёритувчи туркум ҳужжатли фильмлар, кўрсатувлар тайёрлаш ва телеканалларда намойиш этилишини таъминласин.

8. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенати, Адлия вазирлиги ҳамда Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институтининг 2026 йил август ойида Тошкент шаҳрида **“Мустақил Ўзбекистон — 35 йиллик тараққиёт йўли: ислоҳотлар, натижалар ва истиқболлар”** мавзусида халқаро илмий-амалий конференцияни ўтказиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

9. Миллатлараро муносабатлар ва хориждаги ватандошлар масалалари бўйича қўмита “Ватандошлар” жамоат фонди, Республика Маънавият ва маърифат маркази, Ташқи ишлар вазирлиги, Ёзувчилар уюшмаси билан биргаликда 2026 йил август-сентябрь ойларида хориждаги ватандошлар ва ўзбек диаспораси вакиллари иштирокида **“Мустақил Ўзбекистон — ғурурим, ифтихорим”** шиори остида маданий-маърифий тадбирлар ташкил этсин.

10. Марказий банк 2026 йил 1 сентябрга қадар **“Мустақилликнинг 35 йиллиги”** эсдалик олтин тангасини зарб этиш чораларини кўрсин.

11. Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Транспорт вазирлиги 2026 йил 1 майга қадар тегишлича янги ташкил этилган маҳаллалардан ҳамда темир йўл станцияларидан бирига **“Мустақилликнинг 35 йиллиги”** номини бериш бўйича таклифларни киритсин.

12. Белгилаб қўйилсинки, ўтказиладиган байрам тадбирлари:

а) Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда — тегишли маҳаллий бюджетларнинг қўшимча манбалари ҳамда ҳомийлик маблағлари ҳисобидан;

б) Тошкент шаҳрида — Республика комиссияси томонидан тасдиқланган харажатлар сметасига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг республика бюджети ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджети маблағлари ҳисобидан тенг улушларда молиялаштирилади.

13. Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, “Дунё” ахборот агентлигига юртимиз мустақиллиги, Янги Ўзбекистоннинг ривожланиш йўли ва халқимизнинг бирдамлиги ҳақида туркум материаллар тайёрлаш ва тарқатиш тавсия этилсин.

14. Республика комиссияси мазкур қарор ижросини назорат қилиш, ҳар ойда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига ахборот киритиб бориш, зарур ҳолларда, қўшимча чора-тадбирлар кўришни таъминласин.

15. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н.Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти** **Ш.МИРЗИЁЕВ**

Тошкент шаҳри,
2026 йил 1 апрель

# ЁШЛАР САЛОМАТЛИГИ – МИЛЛАТ КЕЛАЖАГИ

**Куни кеча Президентимиз Ш.Мирзиёев жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги устувор вазифалар муҳокамасига бағишланган видеоселектор йиғилишида белгиланган асосий вазифалар ҳақида сўзлар экан, “Спорт бу фақат мусобақа эмас,балки соғлом турмуш тарзи, интизом, ватанпарварлик ва мамлакат нуфузини намоён қиладиган катта куч”, дея таъкидладилар. Зеро, бу ёш авлод тарбиясида ҳам катта аҳамият касб этади.**



Ҳеч кимга сир эмас, соғлом ва баркамол авлод — ҳар қандай жамиятнинг энг катта бойлиги, келажак тараққиётининг ишончли пойдеворидир. Айниқса, талаба-ёшларнинг ҳам жисмонан, ҳам маънан етук бўлиб камол топиши, уларнинг ҳаётга бўлган муносабати, дунёқараши ва фаол фуқаролик позициясини шакллантиришда спорт ва соғлом турмуш тарзи алоҳида аҳамият касб этади. Шу маънода, Чирчиқ давлат педагогика университетида олиб борилаётган спорт-соғломлаштириш ишлари нафақат рақамларда, балки ёшлар қалбида уйғонаётган ирода, интилиш ва ғалабага ишончда ҳам ўз ифодасини топмоқда.

### Спорт — тарбиянинг энг самарали йўли

Спорт инсонни фақат бақувват қилиб қўймайди, у шахсни тарбиялайди. У иродани мустаҳкамлайди, интизомни шакллантиради, мағлубиятни муносиб қабул қилиш ва ғалаба учун курашишни ўргатади. Университетда ташкил этилган “Беш ташаббус” доирасидаги мусобақалар ана шу ғоянинг амалий ифодаси бўлди. Мини-футболдан тортиб енгил атлетикагача бўлган 5 та спорт тури бўйича ўтказилган мусобақаларда 4300 дан ортиқ талаба иштирок этгани — бу фақат рақам эмас, балки ёшлар қалбида спортга бўлган муҳаббат уйғонаётганининг далилидир.

### Майдонда чархланган ирода

Ҳар бир мусобақа — бу синов. Бу ерда нафақат жисмоний куч, балки руҳий барқарорлик ҳам синаб кўрилади. Тошкент вилояти босқичида иштирок этган университет талабалари ўз имкониятларини намоён этиб, республика босқичига йўлланма олдилар. Айниқса, волейбол бўйича қизлар жамоасининг 2-ўринни эгаллаши — бу нафақат ютуқ, балки қатъият, меҳнат ва ишончнинг самарасидир. Шу каби ютуқлар ёшлар қалбида “мен ҳам қила оламан” деган ишончни уйғотади. Бу эса энг катта ғалабадир.

Университетда спорт фақат жисмоний машғулот эмас, балки ҳаёт мактаби сифатида қаралади. Бу ерда ҳар бир мусобақа — бу сабр, интизом, жамоавийлик ва ғалабага интилишни ўргатадиган муҳим тарбия воситасидир.

2025-2026 ўқув йилининг илк ойларидаёқ “Беш ташаббус” доирасида ташкил этилган спорт мусобақалари бу фикрнинг яққол исботидир. Мини-футбол, стол тенниси, волейбол, стритбол ва енгил атлетика каби спорт турлари бўйича ўтказилган университет биринчилигида жами 4305 нафар талаба иштирок этди. Бу кўрсаткичнинг ўзиёқ ёшлар орасида спортга бўлган қизиқиш ва интилиш қай даражада юқори эканини намоён этади.

Қувонарлиси шундаки, иштирокчилар орасида 1722 нафар қизларнинг фаоллиги ҳам алоҳида эътиборга лойиқ. Бу эса мамлакатимизда қизларнинг ҳам жисмоний фаолликка, соғлом турмуш тарзига кенг жалб этилаётганининг амалий кўринишидир.

### Ғалаба йўли — интилиш ва меҳнат самараси

Спортдаги натижа тасодиф эмас, балки мунтазам меҳнат ва ишончли тайёргарлик самарасидир. Университет жамоаларининг вилоят ва республика босқичларидаги иштироки ҳам айнан шу ҳақиқатни тасдиқлайди. Тошкент вилояти босқичида 35 нафар талаба қатнашиб, улардан энг муносиблари республика босқичига йўлланма олди. Хусусан: футбол бўйича ўғил болалар жамоаси, волейбол, енгил атлетика ва стол тенниси бўйича қизлар жамоалари юқори босқичларда университет шарафини муносиб ҳимоя қилди.

Айниқса, волейбол бўйича қизлар жамоасининг Республика босқичида 2-ўринни эгаллаши — бу нафақат ғалаба, балки катта меҳнатнинг муносиб баҳосидир. Шунингдек, стол тенниси бўйича талаба Шаҳризода Шарипованинг 4-ўринни қўлга киритиши ёш спортчилар учун илҳом манбаи бўлиб хизмат қилади.

### Талабалар лигаси — оммавий спорт майдони

2026 йил 10 февралдан старт олган “Талабалар лигаси” мусобақалари эса университет ҳаётида янги босқични бошлаб берди. Бу мусобақалар 9 та спорт турини қамраб олган бўлиб, унда жами 5040 нафар талаба иштирок этмоқда.

Бу рақамлар ортида катта маъно бор. Бу — ҳар бир ёшнинг соғлом ҳаётга бўлган интилиши, ўз устида ишлашга бўлган иштиёқи демакдир. Қизлар ва ўғил болаларнинг деярли тенг миқдорда иштирок этаётгани эса жамиятимизда гендер тенглик ва имкониятлар баробарлигининг амалда таъминланаётганидан далолат беради.

### Оммавий спорт — соғлом жамият пойдевори

Университетда спорт фақат мусобақалар билан чекланиб қолмаяпти. Ҳар ҳафтанинг маълум кунларида, жума кунлари эса ректорат майдонида ўтказилаётган оммавий спорт тадбирлари бунинг ёрқин намунасидир.

Бу тадбирларда 2000 нафарга яқин талаба қамраб олингани — спортнинг оммавий тус олаётганидан далолат беради. “Талаба югур” мусобақасида иштирок этган 240 нафар ёш эса фаол ҳаёт тарзини танлаганининг амалий исботидир.

### Режали ишлар — тизимли натижа

Энг муҳими, бу ишлар тасодифий эмас, балки аниқ режа асосида олиб борилмоқда. Барча факультетларда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш бўйича махсус режа-график ишлаб чиқилган.

Унга кўра:

ҳар ойда 450 нафар профессор-ўқитувчи,

6700 нафар кундузги,

1500 нафар кечки таълим талабалари спорт тадбирларига жалб этилиши белгиланган.

Бу эса спортнинг нафақат талабалар, балки устозлар ҳаётига ҳам чуқур кириб бораётганини кўрсатади.

**“Декан кубоги” ва “Ректор кубоги” — рақобат ва бирдамлик рамзи.**

Университетда ташкил этилаётган “Декан кубоги” ва “Ректор кубоги” мусобақалари эса спорт орқали жамоавийлик ва рақобат муҳитини янада кучайтиришга хизмат қилмоқда.

“Декан кубоги” доирасида минглаб талабалар:шахмат-шашка, стол тенниси, волейбол, футбол каби спорт турларида ўз маҳоратларини синовдан ўтказмоқда.

“Ректор кубоги” эса энг сара иштирокчиларни бирлаштириб, ҳақиқий спорт байрамига айланиши кутилмоқда. Унда жами 1200 нафар талаба иштирок этиши режалаштирилган. Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, Чирчиқ давлат педагогика университетида олиб борилаётган спорт-соғломлаштириш ишлари — бу шунчаки рақамлар ёки ҳисобот эмас. Бу — келажакка қаратилган инвестиция, баркамол авлодни тарбиялаш йўлидаги амалий қадамлардир. Зеро, спорт билан шуғулланган ёш: соғлом бўлади, иродали бўлади, ҳаётда ўз ўрнини топа олади. Шундай экан, ёшларимизни спортга жалб этиш — бу фақат вазифа эмас, балки миллат келажаги учун масъулиятдир. Чунки соғлом авлод — соғлом жамият, соғлом жамият эса буюк келажак демакдир.

**Самаридин ҚОРАЕВ,
Чирчиқ давлат педагогика университети Ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича биринчи проректори,
педагогика фанлари доктори**

## OLIY TA’LIM YANGILIKLARI

# Yoshlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov talaba-yoshlar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Uchrashuv Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan har payshanba “Yoshlar kuni” sifatida o‘tkazilishi belgilangani doirasida tashkil etildi.**



Muloqot davomida vazir Qo‘ng‘irotboy Sharipov davlat grantlari, xalqaro stipendiya dasturlari, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari hamda xorijiy oliy ta’lim muassasalarida tahsil olish imkoniyatlari haqida batafsil to‘xtaldi. Shuningdek, yoshlarning ilmiy faollikka jalb etilishi, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va startap tashabbuslarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv davomida talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan faol ishtirok etdilar. Vazir har bir savolga ochiq va batafsil javob berib, yoshlarning taklif va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildirdi.

Mazkur muloqot talaba-yoshlarning ta’lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ularni ilmiy va akademik faoliyatga rag‘batlantirish hamda kelajak rejalarini aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, bu kabi ochiq muloqotlar davlat va yoshlar o‘rtasidagi samarali muloqot maydoniga aylanib borayotgani ta’kidlandi.

Tadbir yakunida Prezident davlat stipendiyasi sohibi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistratura bosqichi 2-kurs talabasi Usmonov Otabek Iqboljon o‘g‘liga stipendiya guvohnomasi vazir tomonidan tantanali ravishda topshirildi.

# Ta’lim va fan sohasida muhim masalalar muhokama qilindi

**Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashida sohaga oid dolzarb yo‘nalishlar hamda ustuvor vazifalar yuzasidan muhim yig‘ilish o‘tkazildi.**

Yig‘ilishda tarmoq kengashiga tegishli kasb va lavozimlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligi ta’kidlandi.

Mazkur jarayonda amaldagi мashg‘ulotlarning milliy klassifikatori zamonaviy talablar asosida shakllanayotgan yangi kasblarni qamrab olish darajasi tahlil qilinishi zarurligi ta’kidlandi. Shuningdek, uni takomillashtirishda ilg‘or xalqaro tajribalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi e’tirof etildi.

Shu bilan birgalikda, yig‘ilishda 2026-yil uchun tasdiqlangan reja-grafik asosida kasbiy standartlarni o‘z vaqtida va sifatli ishlab chiqish masalalari muhokama qilindi. Bu borada belgilangan muddatlarga qat’iy rioya etish, ishlab chiqilayotgan standartlarning amaliy ahamiyatini oshirish hamda ularni soha mutaxassislari va ish beruvchilar bilan hamkorlikda tayyorlash zarurligi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda ta’lim va fan sohasiga oid kasb hamda lavozimlar uchun xizmatchilar lavozimlarining malaka ma’lumotnomasini ishlab chiqish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Mazkur hujjat orqali har bir lavozim bo‘yicha aniq malaka talablari, funksional vazifalar hamda zarur bilim va ko‘nikmalarni tizimli belgilash muhimligi qayd etildi.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish maqsadida tegishli mutaxassislar va ekspertlardan iborat ishchi guruhni shakllantirish, uning faoliyatini aniq reja asosida yo‘lga qo‘yish zarurligi belgilab olindi.

**Инсон қадрини улуғлаш — юртимизда яшаётган ҳар бир одамнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш демакдир. Бу борада жамиятимиз асоси бўлган маҳалла ҳал қилувчи ўрин тутади.**

# IJTIMOIY TARMOQLAR RIVOJINING ADABIY TILIMIZGA TASIRI



**Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning til o‘rganish jarayoni va undan amaliy foydalanishga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning til rivojiga ijobiy hamda salbiy ta’sirlari o‘rganilib, ularning kommunikativ muhitdagi o‘rni yoritiladi. Qisqartmalar, yangi so‘z va atamalarning paydo bo‘lishi hamda ularning til me’yorlariga ta’siri lingvistik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalarda qo‘llaniladigan ijtimoiy leksika va nutqiy birliklar tahlil qilinadi. Natijada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy til rivojiga ta’sir etuvchi omil sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.**

Har bir millatning o‘zligini namoyon etuvchi asosiy mezonlardan biri — uning tili, madaniyati, urf-odati va yozuv tizimidir. Til millat tafakkurining mahsuli, tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlarining ifodasidir. O‘zbek tili o‘zining boy lug‘aviy zaxirasi, uslubiy imkoniyatlari va tarixiy taraqqiyot yo‘li bilan ajralib turadi. Shu bois uni asrash, rivojlantirish va adabiy me’yorlarini mustahkamlash dolzarb masalalardan biridir.

XXI asr — globallashuv va raqamli texnologiyalar asri. Ilm-fan, texnika va kommunikatsiya vositalarining keskin rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, til tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirib, yangi til birliklari, qisqartmalar va aralash nutq ko‘rinishlarini yuzaga keltirmoqda.

Jumladan, G.Mayliyevaning tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlar til o‘rganish va undan foydalanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi, foydalanuvchilarga global muloqot imkoniyatini yaratishi hamda til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muallifning ta’kidlashicha, qisqa formatli platformalarda foydalanuvchilar mazmunli va ixcham fikr bildirishga intiladi, bu esa lingvistik tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, “lol”, “omg” kabi qisqartmalar va norasmiy yozuv shakllarining keng qo‘llanishi adabiy til me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etiladi.

Shuningdek, T.Alpaidzening ilmiy ishida ijtimoiy tarmoqlar til rivojlanish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirgani, yangi so‘z va iboralar memlar, xeshteglar hamda virusli postlar orqali juda qisqa vaqt ichida ommalashib borayotgani ta’kidlanadi. Natijada tilning an’anaviy rivojlanish mexanizmlari o‘zgarib, rasmiy va norasmiy nutq chegaralari tobora yo‘qolib bormoqda.

Bundan tashqari, G.Juraeva va D.Yoqubjonovalarning tadqiqotida ijtimoiy medianing til bilish va yozish ko‘nikmalariga ta’siri tahlil qilinib, u foydalanuvchilarning muloqot qilish qobiliyatini oshirishi bilan birga, rasmiy yozuvda aniqlikning pasayishiga, grammatik noaniqliklar va norasmiy ifodalarning ko‘payishiga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan.

S.Ismatov esa o‘z tadqiqotida ijtimoiy tarmoqlar orqali soddalashtirilgan til, qisqartmalar, emojilar va turli yangi lingvistik shakllarning keng qo‘llanishini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bunday jarayonlar bir tomondan tilni boyitib, yangi kommunikativ imkoniyatlar yaratadi, ikkinchi tomondan esa savodxonlik darajasining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Hatto ayrim davlatlarda bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini cheklash masalasi ham kun tartibiga chiqmoqda. Masalan, Daniyada 15 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini cheklash bo‘yicha takliflar ilgari surilgani bu muammoning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning til tizimiga ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish hamda adabiy til me’yorlarini saqlab qolish masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Quyidagi so‘zlar ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida nutqimizda keng qo‘llanayotgan so‘zlar hisoblanadi. Ular ingliz yoki rus tillaridan kirib kelib, muloqotda adabiy tilimizdagi so‘zlarning o‘rnini egallab bormoqda. Bunday holat ayniqsa yoshlar nutqida yaqqol seziladi.

Telegram tarmog‘ida ko‘pincha “yaxshi” so‘zi o‘rniga “ok”, “okey” so‘zlari qo‘llaniladi. Bu so‘zlar ingliz tilidan kirib kelgan bo‘lib, suhbat jarayonini tezlashtirish maqsadida ishlatiladi. Yana “ajoyib”, “zo‘r” kabi so‘zlar o‘rniga “vauv” (wow), “huddi”, “qanday” ma’nosida “kak”, “rahmat” o‘rnida “sps”, “ketdik” ma’nosida “goo” yoki “davay”, “allaqachon” o‘rnida “uje” kabi ruscha yoki inglizcha so‘zlar ham ishlatilmoqda.

Instagram tarmog‘ida ham bir qator xorijiy so‘zlar faol qo‘llanadi. Masalan “direktim”, “lichkam” kabi so‘zlar shaxsiy yozishmalarni anglatadi. Aslida bu so‘zlar o‘zimizni tilda “shaxsiy suhbat” ma’nosini beradi. Yana “podpiska” yoki “follow” so‘zlari o‘rniga adabiy tilimizda “obuna”, “prosmotr” o‘rniga “ko‘rish”, “pramoy” yoki “live” o‘rniga “jonli efir” so‘zlarini qo‘llash mumkin. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida “post joylash”, “story qo‘yish”, “account”, “zapros” kabi so‘zlar ham keng ishlatiladi. Aslida ularning adabiy tilimizda qo‘llanilishi “rasm joylash”, “hikoya”, “hisob”, “so‘rov” kabi ma’nolarni beradi.

TikTok tarmog‘ida ham shunga o‘xshash holat kuzatiladi. Masalan “profil” so‘zi o‘rniga “hisob”, “aktiv” o‘rniga “faol”, “new” o‘rniga “yangi” kabi so‘zlar ishlatilishi mumkin. Shuningdek “trend”, “kontent”, “comment” kabi so‘zlar ham keng tarqalgan. “Trend” so‘zi odatda ommalashgan yoki urf bo‘lgan narsani anglatadi, “comment” esa “fikr” yoki “izoh” ma’nosini bildiradi. Yana “zakrit account” so‘zi o‘rniga “yopiq hisob” shakli adabiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi.

Telegram uchun: (suhbatda)
“Yaxshi” o‘rniga “ok”, “okey”
“Ajoyib” o‘rniga “vauv” (wow)
“Huddi”, “Qanday” o‘rniga “kak”
“Rahmat” o‘rniga “sps”
“Ketdik” o‘rniga “goo”, “davay”
“Allaqachon” o‘rniga “uje”.

Instagram uchun:
“Direktim”, “lichkam” o‘rniga “shaxsiy”, “suhbat”
“Podpiska” “follow” o‘rniga “obuna”
“Prosmotr” o‘rniga “ko‘rish”
“Pramoy” “live” o‘rniga “jonli”
“Post joylamoq” o‘rniga “rasm joylamoq
“Rels ko‘rmoq” “video ko‘rmoq”
“Zametka” o‘rniga “eslatma”
“Story” o‘rniga “hikoya”
“Account” o‘rniga “hisob”
“Zapros” o‘rniga “so‘rov”.
Tiktok uchun:
“Profil” o‘rniga “hisob”
“Aktiv” o‘rniga “faol”
“New” o‘rniga “yangi”
“Kontent”,"Trend” o‘rniga “mashhur”, “urf”
“Zakrit account” o‘rniga “yopiq hisob”
“Coment” o‘rniga “fikr”.

Shunga o‘xshash so‘zlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tilimizga yangi so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu sezilarli darajada kundalik muloqotimizdagi so‘zlarimizga tasirini tobora ko‘rsatib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida. Adabiy tilimiz me’yorlarini saqlash uchun imkon qadar o‘zbek tilidagi so‘zlardan foydalanishimiz kerak. Shunda tilimizning boyligi va sofligi saqlanib qoladi.Shu jumladan, selfi, bloger, vlog, strim, hashtag, spam, bot, admin, podcast kabi atamalar keng tarqalgan. Ushbu so‘zlarning o‘zbek adabiy tilida aniq tarjimasi yo‘q, lekin ularning ma’nosi internet va media kontekstida tushunarli. Masalan, selfi — o‘zini suratga olish, bloger — onlayn material yaratuvchi shaxs, vlog — video blog, strim — jonli efir, hashtag — mavzu belgilash, spam — keraksiz xabar, bot — avtomatlashtirilgan hisob, admin — kanal boshqaruvchisi, podcast — audio suhbat yoki dastur.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan. Ular axborot almashinuvi tezligini oshirib, global muloqotni kengaytirmoqda. Shu bilan birga, adabiy til me’yorlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yoshlar orasida chet tillaridan so‘z aralashuvi, qisqartmalar va imlo me’yorlarining buzilishi keng tarqalmoqda. Bu jarayon nazoratsiz qolsa, adabiy tilning barqarorligiga putur yetkazishi mumkin.

Biroq to‘g‘ri yondashuv, ilmiy monitoring va ma’rifiy targ‘ibot orqali ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirini ijobiy yo‘nalishga burish mumkin. Davlat siyosati, tilshunos olimlar faoliyati va yoshlar ongida til madaniyatini shakllantirish orqali o‘zbek adabiy tilini raqamli davr sharoitida ham mustahkam saqlab qolish mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar tezkor rivojlanishi natijasida foydalanuvchilar, ayniqsa yoshlar o‘rtasidagi muloqot shakllari sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Shu bilan birga, adabiy tilimizga bo‘lgan ta’sir ham ortib bormoqda. Tilshunos olimlarimiz va adabiy muassasalar bu jarayonga e’tibor qaratib, adabiy tilning normativ qoidalarini saqlash va chetlashib ketgan so‘zlar hamda lug‘atlarni tiklash ustida faol ish olib bormoqdalar. Shuningdek, hozirgi kunda til va tillarga bo‘lgan qiziqish yoshlar orasida sezilarli darajada ortib bormoqda. Ko‘plab yoshlar kamida ikki-uch tilda erkin muloqot qila olishadi. Shu sababli, ular “til ro‘kachligi” (lingvistik moslashuv) orqali turli tillarni o‘zlashtirib, ularni adabiy tilimiz bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilmoqda. Bu esa, bir tomondan, adabiy tilimizning rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yoshlar o‘rtasida til madaniyatini oshirish va milliy tilni saqlashga imkon yaratadi. Maxsus e’tibor yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo‘layotgan muloqotlarga qaratilgan. Tezkor yozish va so‘z almashinuvi (ingliz, rus va boshqa tillardan so‘zlar aralashuvi) natijasida adabiy til qoidalari sustlashmoqda. Shu bois, Daniya va shunga o‘xshash davlatlarning yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarni ma’lum chegaralar bilan ishlatishga oid qarorlari maqtovga sazovor. Bu tajribani mamlakatimizda ham qo‘llash yoshlar til madaniyatini oshirishga yordam beradi va adabiy tilni himoya qilishda muhim qadam bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan. Ular axborot almashinuvi tezligini oshirib, global muloqotni kengaytirmoqda. Shu bilan birga, adabiy til me’yorlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yoshlar orasida chet tillaridan so‘z aralashuvi, qisqartmalar va imlo me’yorlarining buzilishi keng tarqalmoqda. Bu jarayon nazoratsiz qolsa, adabiy tilning barqarorligiga putur yetkazishi mumkin.

Biroq to‘g‘ri yondashuv, ilmiy monitoring va ma’rifiy targ‘ibot orqali ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirini ijobiy yo‘nalishga burish mumkin. Davlat siyosati, tilshunos olimlar faoliyati va yoshlar ongida til madaniyatini shakllantirish orqali o‘zbek adabiy tilini raqamli davr sharoitida ham mustahkam saqlab qolish mumkin.

**Mohinaxon XAMIDOVA,
KIUT “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti.
Nasiba XOLBOYEVA,
KIUT “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 2-kurs talabasi**

# МАЪНАВИЯТ – ИНСОН ҚАЛБИ ҒУРУРИ

**Маънавий-маърифий ишлар — кенг оммани маънавий ва маърифий жиҳатдан тарбиялаш, уларнинг умумий маънавий савиясини юксалтириш, ижодий қобилиятларини ривожлантириш, бўш вақтларини самарали ўтказишга кўмак берувчи тадбирлар тизимини ифодаловчи тушунча.**

Маънавий-маърифий ишлар мазмуни, мақсад-муддаолари ҳар бир замон ва маконнинг ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, маданий-маърифий, ғоявий, мафкуравий хусусиятларига чамбарчас боғлиқ ҳолда шаклланади. Маънавий-маърифий ишлар тушунчаси кенг маънода ўқув муассасалари таълим-тарбия масканлари, клублар, ахборот-ресурс марказлари, маданият ва истироҳат боғлар фаолиятини қамраб олади. Бунда музей, кинотеатр, театр ва бошқа маданий-маърифий муассасалар, шунингдек, ОАВ (газета, журналлар, интернет, радио, ТВ) муҳим ўрин тутади.

Асрлар ўтиши билан маънавий-маърифий ишлар муассасаларининг кенг тармоғининг ташкил этилиши, уларнинг ўсиши ва такомиллашуви билан унга раҳбарлик қилиш жараёни ҳам мукаммаллашиб борган. Инсон дунёқарашини шакллантириш, маънавий-ахлоқий тарбия, ғоялар тарғиботи, иқтисодий билимларнинг илмий-техникавий тарғибот-ташвиқоти, эстетик ва жисмоний тарбия, бадиий ҳаваскорлик, маданий дам олишни ташкил этиш, ёш истеъдодларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш маънавий-маърифий ишларининг турли йўналишларидир. Эзгулик ва меҳр-оқибат, улуғворлик ва гўзаллик, виждонийлик ва меҳр-шафқат, бошқаларга ҳурмат ҳамда табиат билан уйғунликни сақлаш каби маънавий хислатлар ҳар бир кишига аста-секин, тадрижий равишда маънавий-маърифий ишлар орқали сингдириб борилади. Маънавий-маърифий ишлар жараёнида ўқув ва клуб муассасаларида анъанавий шакллар (суҳбат, мулоқот, маъруза, спектакль, концертлар, шеърхонлик) билан бирга мавзули кечалар, китобхонлар конференциялари ва бошқа тадбирлар уюштирилади. Маънавий-маърифий ишлар бўйича мутахассислар университетлар, педагогика ва маданият институтлари, маданият ва санъат коллежларида тайёрланади.



Собиқ иттифоқ даврида маънавий-маърифий ишлар тоталитар-мафкуравий фаолиятнинг мустақил соҳаси сифатида шаклланган бўлса-да, маънавият-маърифат масалаларига нотўғри муносабат юритилган, унга сарфланадиган маблағ доимо бошқа соҳалардан кам бўлган. Инсоннинг тўлақонли ҳаёти учун зарур бўлган мактаблар, кутубхоналар, театр ва бошқа маънавият ўчоқларини кўпайтириш, улар шароитини яхшилаш масаласига жиддий эътибор берилмаган. Кейинги йилларда миллий ғояни шакллантириш, анъаналарни қадрлаш, урф-одатлар, миллий қадриятларни тиклаш борасида улкан ишлар амалга оширилди. Маънавият ва маърифат соҳаларида фаолият юритаётган ўқитувчилар ва тарғиботчилар, олимлар ва зиёлилар, маданий оқартув муассасалари ва бошқа соҳалардаги мутахассисларнинг ижодий фаолияти учун кенг имкониятлар яратилди. Ҳозирги замон, ҳаёт талабига биноан маънавий-маърифий ишларни янги, давр талаби ва манфаатларига мос такомиллашган тизими шакллантирилди. Бунда таълим тизими, музейлар, маданият уйлари ва саройлари, ахборот-ресурс марказлари, маданият ва истироҳат боғлари оммавий муассасалар сифатида миллионлаб аҳолига маънавий-маърифий хизмат кўрсатмоқдалар. Юртимизда маънавий-маърифий муҳитни янада яхшилаш, минг йиллар мобайнида унинг бағрида сайқалланиб келаётган ибратли анъана ва қадриятларни тарғиб-ташвиқ этиш борасида кўплаб тадбирлар ташкил этилмоқда. Шу мавзуда илмий-оммабоп, публицистик асарлар, ҳужжатли фильмлар ва телекўрсатувлар яратилиб, турли кўргазмалар ташкил қилинмоқда. Бу соҳадаги маънавий-маърифий ишларнинг йўналиши ҳар бир киши онги ва қалбига миллий ғояни сингдириш, баркамол авлодни вояга етказиш, эзгулик, бағрикенглик, инсонпарварлик, меҳр-оқибат, иймон-эътиқодни тарбиялашга маънавиятнинг миллий-этник асослари ва замонавийликни уйғунлаштиришга қаратилган.

Маънавий-маърифий тадбирлар самарадорлиги юқори бўлиши учун уларни тайёрлаш ва ўтказиш жараёнида ёшларда тарбия ва ўзини ўзи тарбиялаш ҳиссини шакллантириш ва ривожлантириш ташкилотчининг диққат марказида бўлиши лозим. Таълим тизимидаги маъруза, амалий машғулотни маънавий-маърифий тадбирлар билан уйғунлаштириш, бир томондан, таълим самарадорлигини оширса, иккинчи томондан, таълим ва тарбиянинг узвийлигини таъминлашга хизмат қилади. Маънавий-маърифий тадбирларни тайёрлаш ҳамда ўтказишга ёшларни кенг жалб қилиш уларда туйғудошлик ҳиссини уйғотади ва бу ҳолат ўтказилган тадбирнинг тарбиявий самарадорлигини янада оширади. Маънавий-маърифий тадбирлардан маънавий-ахлоқий тарбияда самарали фойдаланишнинг муҳим шарти шуки, бунда ҳар бир кишининг хусусиятлари, муайян воқеа-ҳодисага нисбатан фикри қай даражада шаклланганини ҳисобга олиш лозим.

Таълим муассасаларида маънавий-маърифий тадбирларни режалаштириш, ташкил қилиш, тайёрлаш ва ўтказишга талаба-ёшларни кенг жалб қилиш, айниқса, мавзу танлаш, режа тузиш, сценарий тайёрлаш, тадбир ўтказиладиган хоналарни жиҳозлаш каби юмушларни талабаларнинг ўзларига топшириш лозим. Маънавий-маърифий тадбирлар самарадорлигининг ошиши ўқув юртларида ўтказиладиган маънавий-маърифий тадбирларнинг режа ва сценарийлари профессор-ўқитувчилар ёки ўқув юрти ходимлари томонидан тузилган тақдирда уларни талабалар муҳокамасидан ўтказиш ва муҳокама жараёнида билдирилган фикрларнинг инобатга олинишга ҳам маънавиймаърифий тадбирлар самарадорлигини ошириш мақсадида ўқув юртларининг маънавий-маърифий муассасалар билан ҳамкорлигини мустаҳкамлашнинг аҳамияти катта. Бундай ҳамкорлик, бир томондан, маданий-маърифий муассасаларни аудитория, томошабин билан таъминлашга, иккинчи томондан, маънавий-маърифий тадбирларнинг таъсирчанлиги ва самарадорлигини оширишга кўмаклашади. Қолаверса, маънавий-маърифий тадбирлар самарадорлиги тадбирларнинг мазмунан миллий маънавий-ахлоқий қадриятларимиз, миллий ғоя ва маданиятимиз, маънавий меросимиз билан уйғун ҳолда ҳамда замонавий шакллар ва интерактив услублар асосида ташкил этилишига боғлиқ.

**Наргиза АБДИЕВА,
ТДИУ Аудит кафедраси профессори, (DSC)
Мафтуна АБДУРАИМОВА,
кафедра доценти, (PhD).**

Bugungi O‘ZBEKISTON
2026-yil 14-aprel,
7-son (81)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com



> Ишонч билан айтиш мумкинки, бизнинг халқларимизни минтақавий ўзига хосликни англаш туйғуси бирлаштирмоқда ва бу туйғу тобора кучайиб бормоқда. Бизнинг нафақат тарихимиз, балки келажагимиз, ҳаётий муҳим манфаатларимиз ҳам умумий ва муштаракдир. Минтақавий ҳамкорлигимизни кенгайтиришдан бошқа йўлимиз йўқ ва бўлиши ҳам мумкин эмас!

# КЎЗИМГА МИЛ ТОРТДИМ, СЕНИ ЭСЛАДИМ...



**Абдували Кутбиддин — 1960 йил 20 июнда Қашқадарё вилоятининг Қарши шаҳрида туғилган. ТошДУ (ҳозирги ЎзМУ) нинг журналистика факультетини тугатган. Дастлабки шеърий тўплами — “Найсон” (1988). Шундан сўнг шоирнинг “Ҳумо”, “Бахтли йил”, “Хаёл кечаси”, “Сен ва сен учун”, “Узоқдан олисга” ва бошқа шеърий тўпламлари нашр этилган. “Дўстлик” ордени соҳиби. 2019 йил 8 декабрда вафот этган.**




* * *

*Қуёш, юртинг қайда, сўраган эдим,*
*Тонг-ла нурингга дил ўраган эдим,*
*Мен ҳам сен бор ерга бораман дедим,*
*Аммо осмонингга қўймадинг, қуёш,*
*Бирор бор бошимга теккизмадинг бош.*

*Муйишиб, мунграйиб ишлаган эдим,*
*Мен ҳам кўп тошларни тишлаган эдим,*
*Қаҳринг шомларида қишлаган эдим,*
*Ҳайрон ёшлигимни ҳўнгратдинг, қуёш,*
*Бирор бор бошимга теккизмадинг бош.*

*Урфу русумингдан бошлаган эдим,*
*Эски дўконингни хушлаган эдим,*
*Дуру маржонингни ушлаган эдим,*
*Оқибат манглайим муштладим, қуёш,*
*Бирор бор бошимга теккизмадинг бош.*

*Тилимни кундага қўйгил, чоп дедим,*
*Кейин дил уйига бориб ёт дедим,*
*Ўғлим у, ўзим у, аста ёқ дедим,*
*Қулу тўзонидан маҳв бўлгин, қуёш,*
*Бирор бор бошимга теккизмадинг бош.*

*Мен одам эдим-ку, мен одам эдим,*
*Лойдан-да йўғрилган матодан эдим,*
*Иблисга алданган атодан эдим,*
*Эй қуёш, мен сени севаман, қуёш,*
*Бирор бор бошимга теккизмадинг бош.*

## ҚАСАМ

*Фаромуш боғларда солланиб маҳзун,*
*Заррин сарполарда, давлати фузун,*
*Қалбимга атайди нон ҳамда тузин,*
*Ё жоним муҳаббат,*
*Сим-сим-эй, сим-сим,*
*Мабодо алдасам, қўлларим синсин.*

*Ўткинч тилакларда болалик бадбахт,*
*Севгининг номидан ёзади тилхат.*
*Агарда яшасам қалдирғочсифат,*
*Қизғалдоқ энамдир,*
*Сим-сим-ей, сим-сим,*
*Мабодо алдасам, қўлларим синсин.*

*Ортимда чўл дедим, кўрсам, Бадахшон,*
*Қадимий тангадай беҳамён, бешон.*
*Ўзимни изласам — мендан йўқ нишон,*
*Ал-амон мен қайда,*
*Сим-сим-эй, сим-сим.*
*Мабодо алдасам қўлларим синсин.*



*Сўнгги дам ўзим-ла ўчакишсам, ҳай,*
*Соҳир кўзларингдан талаб этсам май,*
*Эвоҳ, кекирдагим кесиб этсам най,*
*Пуфласам — куй ёнса,*
*Сим-сим-эй, сим-сим.*
*Мабодо алдасам юрагим тинсин.*

* * *

*Кўзимдан ўпиб қўй, Осима!*
*Сенга олма бергум мағз-мағзи олтин.*



*Тишласанг, тишларинг ҳаммаси тилла,*
*Лабларинг ёлқин...*

*Хоҳласанг бераман сеҳргар каклик,*
*Сайраса бўғзидан тушади гуҳар,*
*Унинг бир қаноти атиргул, бири*
*Нилуфар.*

*Истасанг зумуррад тароғим сенга,*
*Сочингни тарасанг ярмиси зумрад.*
*Силасанг қўлингу бармоғинг бўлгай*
*Ложувард.*

*...Эшикни ёп дейсан,*
*Совуқ-ку ахир.*
*Бошим оғрияпти, бошим.*

*Уҳ, тортиб ойнадан ғижирлар совуқ,*
*Аёз ишқаб ўтар эшикка бетин.*
*Қуқулаб юборар ҳовлида товуқ,*

*Дарахтдан узилиб*
*Тушади — олма —*
*Олтинии,*
*Ол-тинии,*
*Доо-о-дей...*

* * *

*Тахайюл тунида сени эсладим,*
*Кафтингда бахт қуши, елкангда кафтар.*
*Пойингда тиз чўкиб мўлтирар маъюс*
*Кийиклар.*

*Бошингда гулбаргак, қароғингда ой,*
*Севдим, дедим сени, манглайи ялпиз,*
*Қўй деди, этагинг тишлаб ётган той —*
*Она қиз бу,*
*Она қиз.*

*Қалдироқ бургутдай ерга ташланди,*
*Оёғимдан тортди, боғлади йўлга.*
*Йўл чопди,*
*Жуда кўп чопди.*
*Ташлади малаклар чўмилган кўлга.*
*Сев, сев, севв!*

*Тепамдан бақириб ўтди қалдироқ,*
*Устимдан қичқириб ўтди шамоллар.*
*Ёнимга келдилар*
*Гўзал, яланғоч —*
*Сев мени, дегунча*
*Соҳибжамоллар.*

*Кўзимга мил тортдим, сени эсладим,*
*Кафтингда бахт қуши, елкангда кафтар.*
*Осмон марказига ботаётирсан,*
*Осмон марказига ботар*
*Кийиклар.*

* * *

*Ниначи қанотин ҳижоб қилсайди,*
*Қил-кўприк йўл топиб бера билсайди,*
*Ғам чексак, Бинафша овунтирсайди,*
*Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на*
*Жон*
*Берар эдик.*

*Сени мен кўзимга солиб турсайдим,*
*Фақат ёш оққанда аксинг кўрсайдим,*
*Юракка хат ёзиб сенга берсайдим,*
*Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на*
*Жон*
*Берар эдик.*

*Қалдирғоч иккимиз олиб кетсайди,*
*Дунёдан-да йироқ ерга элтсайди,*
*Сўнг севиб ўлмоқдин сабоқ ўтсайди,*
*Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на*
*Жон*
*Берар эдик.*

*Ё семурғ бизларни бола қилсайди,*
*Муҳаббат наҳрида чўмилтирсайди,*
*Иккимиз бир лаҳза бирлаштирсайди,*
*Тўл-ғо-на, тўл-ғо-на*
*Жон*
*Берар эдик.*

* * *

*Не дейин, саҳрода дардкашим сароб.*
*Сир айтарим саксовул, не дейин.*
*Кундан кун аҳволим харобдан хароб,*
*Ичдим ғам майин.*
*Войладим. Бир оҳу яқин келмади,*
*Қумга урдим юзим, у мендан безор.*
*Бирор ит мени Қайс деб билмади,*
*Тану жон озор...*
*Кўп кездим. Кўрмадим бирорта карвон,*
*Билмадим қаёнда мағрибу машриқ.*
*Машаққат соҳибим, арконим армон,*
*Амирим қашқир...*
*Ҳукми равонимга бўйсунмас тақдир,*
*Энди йўл биргина руҳлар кўшкига.*
*Тинч комга мен қандай тушаман, ахир,*
*Ишқига тўймадим,*
*Ишқига...*

## ҲЕЧ КИМ СУЙГАН ЭМАС МЕНИ СЕНЧАЛИК...

*Ҳеч ким суйган эмас мени сенчалик,*
*Қақнус тумшуғида ёнган аланга.*
*Азизам, азизам, ғамгин азизам,*
*Саодат олмоққа етурми тангам.*
*Гирдоб ютиб кетган олуча барги,*
*Темир дубулғада ўсган чиннигул.*
*Нотинч изтиробим ва соғинчларим*
*Сенсиз этмакдаман ёлғиз танаввул.*
*Ҳамал қафасида ҳарир, ғаройиб*
*Зиндон топиб берар кофар ҳаяжон.*
*Бўёқлар буғланган симий ҳовузда*
*Қалтираб, ялтираб турган япроқ — жон.*
*Ҳеч ким севган эмас мени сенчалик,*
*Ҳеч ким бўлолмаган сендай фидо тан.*
*Улкан кемани ҳам чўктирган балиқ,*
*Гўё сен,*
*Дарғадай таажжубланаман.*
*Оғир лангар бўлиб қўлларим чўкар,*
*Чуқур қучоғингга боғланиб беҳуш.*
*Лолдирман, тилларим қолар узилиб,*
*Зангор тўлқинларда қийқирган оққуш.*
*Ҳеч ким суйган эмас, мени сенчалик,*
*Ҳеч ким севган эмас мени юракдан.*
*Ҳеч ким тўкилмаган сендек эланиб,*
*Ҳеч ким тўкилмаган сендек элакдан.*
*На тақдир битгувчи,*
*На қаттол рақиб,*
*Бермаган саодат олмоққа танга.*
*Ҳеч ким ёндирмаган мени сенчалик,*
*Қақнус тумшуғида ёнган аланга.*
*Ҳеч ким суйган эмас мени сенчалик...*

## “АВТОПОРТРЕТ”

*Мен жуда ёлғизман,*
*Гўё қудуқда*
*Қовурғамгача сув, баданим оғу,*
*Билагим увушиб типирчилайди —*
*Мисли сўнгги нола, охирги ёҳу.*
*Мен жуда ёлғизман —*
*Қудуқдир жойим,*
*Безиллар, яширинар мендан чувалчанг,*
*Қурбақа, сен балки малаксан асли,*
*Не бўлар аслингга қайта олсанг.*
*Мен жуда ёлғизман —*
*Қўлимда нина*
*Тиламан, қазийман чуқурдан-чуқур.*
*Тепадан тош тўла пақир ташларлар,*
*Сўрарлар қилиб бер дея жавоҳир.*
*Мен жуда ёлғизман,*
*Азобим чексиз,*
*Қўлимда занглаган қадимий тақа.*
*Бўйнимга ёпишиб этар тавалло,*
*Аслига қайтолмай ётган қурбақа.*
*Мен жуда ёлғизман,*
*Тепадагилар*
*Кенгликда от суриб овлашар гуноҳ.*
*Мени тушунмаслар (фаҳм шарт эмас).*
*Аждарман*
*Ва исмим “Оҳ”дир менинг*
*“Оҳ”.*

